

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Boshlang‘ich ta’lim va jismoniy
madaniyat fakulteti dekani
prof. B.S. Abdullayeva
“ _____ ” _____ 2014-yil

«Boshlang‘ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish» ta’lim yo‘nalishi

**Mavzu: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy va estetik tarbiyani
integratsiyalashgan tizimini shakllantirish**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: IV bosqich “402” guruh talabasi:
Qayumberdieva Shaxnoza Abdug‘ani qizi
Ilmiy rahbar: “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi
va tarbiyaviy ishlar metodikasi”
kafedrasi, professori, p.f.d. J.G‘.Yo‘ldoshev

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va
tarbiyaviy ishlar metodikasi”
kafedrasi mudiri p.f.n. dotsent
X.R.Sanaqulov _____
“ _____ ” _____ 2014-yil

Toshkent 2014

MUNDARIJA

KIRISH

I Bob. Axloqiy va estetik tarbiyani integratsiyalash jarayoni pedagogik muammo sifatida.

1.1.Integratsiya tushunchasi va axloqiy va estetik tarbiyani integratsiyalashning nazariy asoslari.

1.2.Shaxs axloqiy-estetik madaniyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari

1- bob bo'yicha xulosa

II-bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy va estetik tarbiyani integratsiyalashgan tizimini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

2.1. Ta'lim-tarbiya jarayoniga axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimini joriy etishda - Sharq mutafakkirlari asarlari asosiy vosita sifatida

2.2. Ta'lim- tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy- estetik tarbiyani shakllantirishning metodik yo'nalishlari.

2- bob bo'yicha xulosa

III - bob. Axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimi mavzusi bo'yicha o'tkazilgan tajriba- sinov ishlari va ularning natijalari.

3.1.Boshlang'ich maktabda estetik mashg'ulotlarni interaktiv tsikli.

3.2.Axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimi mavzusi bo'yicha o'tkazilgan tajriba- sinov ishlari va ularning natijalari.

3- bob bo'yicha xulosa.

Umumiy xulosa

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy yo'nalishlarini rivojlantirishda va demokratik, insonparvarlik jamiyatini qurishda xalq ta'limi tizimini takomillashtirish, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi ish faoliyatini yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajagimizning taqdiri hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim bosqichi maktablarida ilm olayotgan bolalarning tarbiyasiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida." kitobida, - "Agar ertangi kunimizni o'ylab ish qilmoqchi bo'lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib, ularning hayoti haqida qayg'uradigan bo'lsak, avvalo. mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutloqo o'zgartirishimiz kerak".¹-deb ta'kidlaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, axloqiy va estetik tarbiya dastlab oilada, bog'chada keyinchalik boshlang'ich sinflarda bilim olayotgan bolalarda shakllanadi. Ta'limning poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchining axloqiylikka va estetikaga oid dunyoqarashi shunchalik rivojlanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov «...bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo'yilishini oddiy mantiqning o'zi talab etadi. Zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak? Bola 1-4 sinflarda qanday bilimga ega bo'lishi lozim? Uning tarbiyasi qanday bo'lishi kerak? Shu masalalarga javob topishimiz zarur.»² O'zbekiston mustaqilligi tufayli boshlang'ich ta'lim mazmuni tubdan o'zgardi. Milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida yangi dasturlar, darsliklar, o'quv metodik tavsiyalar, ilmiy-metodik qo'llanmalar yaratildi. Dunyoqarashi, Mustaqil respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarni yangi talab asosida o'qitish va tarbiyalashga alohida e'tibor berildi. Boshlang'ich sinflar bo'yicha davlat ta'lim standarti, boshlang'ich ta'lim kontsepsiyasi yaratildi. Bu mustaqil O'zbekistonda birinchi

¹ Islom Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2011 yil, 70-71-betlar.

² Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" T., "Ma'naviyat". 2008 yil.

navbatda ta'lim- tarbiya jarayoniga yangicha yondoshuv va bu yondoshuvga katta mas'uliyat bilag qarash namunasi xisoblanadi.

Muammoning ishlanganlik darajasi: Prezidentimiz Islom Abdugʻanievich Karimov “ Oʻzbekistonning oʻz istiqlol va taraqqiyot yoʻli” asarida “Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik qilish, lchiq koʻngillilik, milldatidan qatʻiy nazar odamlarga xayrixoxlik bilan munosabatda boʻlish, Oʻzgalar kulfatiga hamdard boʻlish va oʻzaro yordam tuygʻusi kishilar oʻrtasidagi munosabatlarning meʼyori hisoblanadi. Oʻzbeklar diyoriga, oʻz Vataniga mehr-muhabbat, megʻnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, maʼrifatparvarlarga nisbatan alohiida hurmat- ehtirom – Oʻzbekiston axolisiga xos fazilatlardir,³ - deb maʼnaviyatning asosi boʻlgan axloqqa aloxida eʼtibor beradi. XIX-XX asrlar oraligʻida pedagogikada kichik maktab oʻquchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalangan kursini yaratish fikri paydo boʻlgan. Bu fikr A. Ya. Gerd, D. N. Kaygorodov, A. P. Pavlov nomlari bilan bogʻliq boʻlib, ular boshlangʻich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo hakidagi boʻlinmagan kursni kirgizishni talab qilishdi. Integratsiyalashgan taʼlim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrimjihatlari mashhur pedagoglarning Ya. Komenskiy, D. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalotsti, K. Ushinskiy va boshqalar, didaktiklarning I. D. Zverev, M. A. Danilov, V. N. Maksimova, S. P. Baranova, N. M. Katkina va boshqalar psixolog olimlarning E. N. Kabanova, Meller, N. F. Talizina, Yu. A. Samarina, G. I. Vergeles), medist olimlarning (M. R. Lvov, V. G. Goretskiy, N. N. Svetlovskaya. Yu. M. Kolyagin, G. N. Pristupova ishlarida koʻrib chiqilgan. Bir qator ishlar boshlangʻich taʼlimdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bagʻishlangap. Bu muammolar oʻquv fanlarinn integratsiyalashga oʻtishning yaqin rivojlanish zonasidir. Shuni aytish kerakki, boshlangʻich taʼlim muammolarini yechish, uni nazariy va amaliy jihatdan oʻrganish doimo dolzarb boʻlib kelgan. Shuning uchun ham R. Movlonova, R. Safarova B. Adizov, M. Haydarov, T. Hasanov, O. Xasanboeva, G. Anartaeva, D. Xamroveva, N. Valieva,

³ Karimov I.A. Oʻzbekistonning oʻz istiqlol va taraqqiyot yoʻli. Toshkent: Oʻzbekiston, 1992, 11- bet

N. Jumaeva kabilarning ilmiy asarlarida boshlang'ich ta'lim mazmuni, boshlang'ich sinf o'quvchilarni mehnat, axloqiy tarbiyalash, ongli intizom, do'stlik, o'rtoqlik kabilar nazariy jihatdan yoritilgan. X.Bobomirzaev, U.Rajabovlarning BMI larida boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodini integratsiyalash asosida o'rganish muammolari pedagogik jihatdan ishlab chiqilgan. M. Yusupov, Z. Ibragimova, N. Tilyabovalar ham o'z ilmiy tadqiqot ishlarida boshlang'ich ta'lim mazmuni, maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni ertaklar asosida tarbiyalashni va ularda vatanparvarlikni his tuyg'ularini shakllanish masalalarini hal etishgan. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni xurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amho'rlik qilish haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish axloqiy tarbiyaning asosiy negizini tashkil etadi. Adabiyotlarni o'rganish va boshlang'ich ta'lim ish tajribasini kuzatishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy va estetik tarbiyani integratsiyalashgan tizimini shakllantirish ishlari yetarlicha hal etilmagan muammo bo'lib kelmoqda. Ana shu muammoni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish maqsadida ilmiy tadqiqot mavzusini: "Axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimi" deb belgiladik.

Bitiruv-malakaviy ishining maqsadi: Axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimi va uning ta'lim- tarbiya jarayonidagi o'rnini aniqlash mazmuni, shakl va metodlari tizimini ishlab chiqish.

Bitiruv-malakaviy ishining ob'ekti: Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik- psixologik bilimlarini integratsiyalash jarayoni.

Bitiruv-malakaviy ishining predmeti: Axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimi jarayoniga ilmiy pedagogik yondashuv

Bitiruv- malakaviy ishining vazifalari:

1. Muammoning nazariya va amaliyotdagi holatini o`rganish asosida axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimi dolzarb muammo ekanligini asoslash.
2. Axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimiga yo`naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni, shakllari va metodlarini ishlab chiqish va ularni tajriba –sinovdan o`tkazish.
3. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining axloqiy va estetik tarbiyalashda tarbiyaning integratsiyalashgan tizimiga yo`naltirilgan ilmiy- metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv- malakaviy ishining ilmiy tadqiqot metodlari: Axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimiga oid nazariy- metodik adabiyotlarni tahlil qilish, suhbat, anketa, tabiiy eksperimental kuzatish, aniqlovchi va shakllantiruvchi tajribalar.

Bitiruv- malakaviy ishining yangiligi:

- ✓ Axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimini yaratish dolzarb pedagogik muammo ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.
- ✓ Axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimiga yo`naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni, shakli, uslubi ishlab chiqildi.
- ✓ Axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimi jarayoniga yo`naltirilgan ilmiy- metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ularning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Bitiruv- malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati: “Boshlang`ich ta`limning integratsiyalashgan pedagogikasi” fani axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari mazmuni, shakli,uslublari; boshlang`ich sinf o`quvchilarining

axloqiy- estetik tarbiyasining integratsiyalashgan tizimiga yo`naltirilgan nazariy yondashuvlar hamda ilmiy- metodik tavsiyalarga ega bo`ldi.

Bitiruv- malakaviy ishining metodologik asosi: O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta`lim- tarbiya sohasiga, milliy g`oya va milliy mafkuraga oid asarlari, shuningdek, O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va mavzuga oid ilmiy – pedagogik, metodik, tarixiy, falsafiy manbalar.

Bitiruv- malakaviy ishining tuzilishi: Kirish, 3 bob, 6 fasl, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I Bob. Axloqiy va estetik tarbiyani integratsiyalash jarayoni pedagogik muammo sifatida.

1.1.Integratsiya tushunchasi va axloqiy va estetik tarbiyani integratsiyalashning nazariy asoslari.

Ilm-fan, texnika va texnologiyaning shiddatli rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida yangiliklar yaratish, mavjud nazariya va g'oyalarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Asrlar davomida jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim – tarbiya tizimida ham o'z aksiga ega bo'lgan. Shu sababli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, yangilanishlarga muvofiq ravishda ta'lim- tarbiya mazmuni ham takomillashib borishi lozim. Mazkur talabning to'la qondirilishida ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi (pedagog)larning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar mohiyatini anglay olishlari, ta'lim-tarbiya jarayonining ularga mos kelishini ta'minlashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim- tarbiya jarayonida integratsiyalashgan tarbiya va ta'limning ustuvor o'rin egallashi jamiyat va ta'lim- tarbiya o'rtasida o'zaro aloqadorlikni qaror toptiradi.

Zamonaviy pedagoglar jamiyatda kechayotgan ijtimoiy o'zgarishlar mohiyatini anglay olishlari, barkamol shaxsni tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojning dolzarbligini yetarli darajada his eta bilishlari, shuningdek, bugungi kun talablarini inobatga olgan holda kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga jiddiy e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish, pedagoglarning ijtimoiy buyurtmani bajarishga shaxsan hissa qo'shishlarini ta'minlashda ularning kasbiy malakalarini oshirib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagoglarning kasbiy malakalarini oshirish yo'lida tashkil etadigan amaliy harakatlarining samarasini ular tomonidan integratsion faoliyat malakalarining muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi bilan belgilash mumkin. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimida ham jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi tub islohotlar amalga oshirildi. Islohotlardan kutilgan asosiy natija sohada yangicha qarashlarni qaror toptirish, jahon standartlariga muvofiq malakali kadrlarni

tayyorlash, o`qitish sifati, tarbiya samaradorligini yuqori bosqichlarga ko`tarish borasida yuzaga kelgan ijtimoiy ehtiyojni qondirishdan iboratdir. Har qanday sohada tub o`zgarishlarni sodir etish, yangicha qarashlarni qaror toptirish integratsion jarayon bo`lib, uning natijalari ijtimoiy ehtiyojlarni to`laqonli qondirilishiga xizmat qiladi. Ta`lim tizimi ham jamiyat ijtimoiy tuzilmasining muhim tarkibiy qismi sifatida bevosita yuzaga keladigan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishi uchun zarur shart-sharoitni yaratadi. Barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazish aynan mana shu tizim asosida ro`yobga chiqariladi. Shu bois ta`lim tizimida zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya rivojiga uyg`un ravishda ta`lim – tarbiya mazmunini yangilab borish muhim talablardan biridir. Mustaqillikdan so`ng o`tgan vaqt mobaynida ushbu talabni inobatga olish orqali ta`lim- tarbiya mazmuniga integratsion g`oyalarni singdirishga jiddiy e`tibor qaratila boshlandi. Bu yo`nalishda, ya`ni “integratsiya” tushunchasining mohiyatini o`rganish, integratsion jarayonlar mazmunini tahlil qilish, pedagogik integratsiyalarning o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish, O`zbekiston sharoitida pedagogik integratsiyalarni yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish, mavjud pedagogik integratsiyalarni umumlashtirish va ommalashtirishdan iboratdir. Hozirgi davrda ta`lim- tarbiya tizimida integratsion jarayonlar juda tezkor darajada rivojlanmoqda. Ta`lim- tarbiyani integratsionlashtirish bevosita, geopolitik regionlar doirasida amalga oshirilib, bunda tarixiy u yoki bu daradjada ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlari yaqin yoki o`xshash turadigan mamlaktlarning ta`lim-tarbiya tizimini birlashtirmoqda. Bugungi kunda ta`lim- tarbiya sohasida integratsion jarayonni amalga oshirish uchun yagona o`ziga xos mexanizmi yaratilgan. Bu masalada doimiy tarzda G`arbiy Yevropa mamlakatlari ta`lim vazifalarining yig`ilishlarini o`tkazib turadi. Yevropa hamjamiyati (ES) davlatlari a`zolari ishtirokida doimiy ishlovchi ta`lim qo`mitalari faoliyat ko`rsatib, uning vazifasiga, g`arbiy yevropa mamlakatlari ta`lim tizimini har tomonlama mukammalashtirish masalalari kiradi. Bu sohada O`zbekistonda ma`lum natijalarga erishilgan bo`lib, bu natijalar samarasi natijasida O`zbekiston va Yevropa davlatlari uchun ham namuna bo`la oladigan

eng qulay ta'lim tizimi modelini yaratishga harakat qilinmoqda. Ta'lim- tarbiyada integratsion jarayonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimi muammosini ham hal qilish imkoniyatini beradi. Shu o'rinda savol tug'iladi: integratsiya nima, u qanday jarayon?

“Integratsiya” so'zi lotincha integration - tiklash, to'ldirish, “integer” butun so'zidan kelib chiqqan. Integratsiya g'oyasi XVIII asrning yigirmanchi yillarida ingliz olimi G. Spenser tomonidan fanga kiritilgan. Integratsiya muammosini hal etish borasida olimlar birmuncha ishlarni amalga oshirganlar. Rivojlangan davlatlarda ta'lim mazmunini integratsiyalash borasida muhim va dolzarb ishlar amalga oshirilgan. Angliya, Yaponiya, Vengriya, Gong Kong davlatlarda ta'lim mazmunini integratsiyalashga erishilgan.

Ta'lim va tarbiyani takomillashtirishda integratsiya muammosi bilan shug'ullangan olimlar uning ahamiyati haqida to'xtalib, unga turlicha ta'rif berganlar.

Integratsiya – o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashga yangicha yondashuv.

Integratsiya - yangi sifat.

Integratsiya – ta'lim jarayonini optimallashtirishning muhim printsipli.


Integratsiya – o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirish, yaxlit holga keltirish.

Integratsiya – tarqoq, bo'lak – bo'lak, ayrim – ayrim xoldagi narsalarni bir butun, yaxlit, tizimlashgan holatga keltirish.

Integratsiya – turli fanlarga oid bilimlarni yagona maqsadni hal etishga yo'naltirishdan iboratligini anglash.

Integratsiya - olamning yaxlitligi (bir butunligi)ni ifodalaydi kabi yuzdan ortiq ta'riflar mavjud.

Shuningdek, N.S. Svetlovskaya, L.N. Baxareva, L.T. Tarasov, Yu.M. Kolyaginlarning integratsiyaga bergan ta'riflari quyidagi sxemada keltirilgan:



Integratsiyaga berilayotgan ta'riflar turlicha: ushbu ta'riflarning umumiylik tomoni – integratsiya bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit qarashga erishishdan iborat.

Integratsiyaning asosini tarbiya turlari va usullari o`rtasidagi aloqadorlik tashkil etadi va o`zining rivojini integratsiya g`oyasida topadi.

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o`ringa ega bo`lib, uni samarali tashkil etish o`quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo`lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o`quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko`nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo`naltirilgan pedagogik jarayon bo`lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yorlardir. Axloq (lotincha «moralis» xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs

xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi. Axloqiy me'yorlar to'g'risidagi bilimlar o'quvchilar ongiga ta'lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o'quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida ko'rinadi.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqlol g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishidir.

Axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyat ta'lim-tarbiya jarayonida yo'lga qo'yilayotgan axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, debatlar xalq xo'jaligining turli sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan, ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarni qo'lga kirish bilan O'zbekiston Respublikasi nomini jahonga mashhur qilayotgan, uning obro'-e'tiborining oshishiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan shaxslar hayoti va faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlardan samarali foydalanish, vatanparvarlik namunalarini ko'rsatgan, xalq qahramonlari namunasida shakllantiriladi. Axloqiy tarbiya o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni samarali tashkil etishda ong, his-tuyg'u hamda xulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir. Zero, ular birligida ma'lum kamchiliklarning yuzaga kelishi ham o'quvchilarning komil shaxs bo'lib kamol topishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyoqarash tabiat, jamiyat, inson tafakkuri hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Yuksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonli yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lish, o'zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish kabi xislatlarni mustaqil O'zbekiston Respublikasi hayotida ustuvor bo'lgan tamoyillar sifatida e'tirof etish mumkin.

O`quvchilarni ma`naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy istiqlol g`oyasi va mafkurasi asoslari tayanch omillar sifatida namoyon bo`ladi. Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida axloqiy mazmundagi suhbat, ma`ruza, bahs-munozara, konferentsiya, seminar hamda debatlardan foydalanish o`zining ijobiy natijalarini beradi. Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma`naviy-ruhiy hayotida o`ziga xos o`rin tutadi. «Axloq» (lotincha – xulq-atvor ma`nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo`lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq - ma`naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me`yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo`lgan ma`naviy kamolotga erishib bo`lmaydi. Shuning uchun ham ma`naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo`lib, shaxsning ma`naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Ma`naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni. Ma`naviy-axloqiy tarbiya va unga qo`yiladigan talablar bu jamiyatda ma`lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida o`quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta`sir etishdir.

Ma`naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

- O`quvchilarda ma`naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
- Ularda ma`naviy-axloqiy his-tuyg`ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
- O`quvchilarda ma`naviy-axloqiy xulq-atvor ko`nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ma`naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko`ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o`z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog`liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me`yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas`uliyatni his etishi, ma`naviy-axloqiy bilimlarning e`tiqodga aylanishi va bu e`tiqodlarning tizimlilik, mustahkam

ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o'zgarishlar yuz berdi. Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi, Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o'zgalar va o'zining hayoti ma'nosini anglagan holda o'tkazish kerakligi haqida ko'plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud. Bundan tashqari ta'lim muassasasida o'quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, ta'lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, mas'uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda jinsiy tarbiya, mehnat tarbiyasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish, ayniqsa, zarurligini kundalik hayot tarzi yanada yaqqol namoyon etmoqda. Tekinxo'rlik, narkomaniya, tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, fahsh, johillik kabi salbiy illatlar ham hayotda uchrab turadi. Bu illatlar insonning axloqiy qiyofasinigina emas, balki o'zini ham yemirib boradi. Inson ham ma'naviy, ham jisman haloq bo'ladi. Shu bois insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo'nalishlaridan ustun qo'yilishi zarur. Binobarin, ma'naviy-axloqiy tarbiya yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liqdir. Agar tarbiyaning boshqa yo'nalishlarida muayyan tarbiya (masalan, jismoniy, huquqiy va boshqalar)

u yoki bu tarbiyaviy tadbirlar tizimiga asoslansa, ma'naviy-axloqiy tarbiyada esa har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, tarbiyaviy vaziyatni inobatga olgan holda, yaxlit tarbiyaviy ishlar rejalashtiriladi va unga mos metod hamda usullar tanlanadi. Tarbiyaviy tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etishda ma'naviyat, axloq inson ongining shakli, inson madaniyatining bir qismi ekanligi haqidagi tushunga ega bo'lish nazarda tutiladi. Ma'naviyat va axloqning mohiyati, uning me'yorlari va tamoyillari mazmunini tushunish o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan fikr yuritishlariga imkon beradi. Natijada ular o'zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini ana shu nuqtai nazardan baholaydilar. Ma'naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti-harakati va xulqi aniqlanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish va uni tushunish hali e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qo'llanilib, o'quvchilar tomonidan ularning faoliyatida namoyon bo'lgandagina shakllangan deyish mumkin.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning hovea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari. Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yohud axloq» asarida axloq «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur», - deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to'xtalib o'tadi. Allomaning nuqati nazaricha, yaxshi xulqlar quyidagilardan iborat: fatonat (aql), diyonat (e'tiqod),

nazofat (poklik va tozalik), g`ayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, shifoat, ilm, sabr, hilm (yumshoq tabiat) intizom, nafs me`yori, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison (til va adabiyot), iqtisod, viqor (g`urur), muhabbat, avf (kechirimli bo`lish). Bu xislatlar ma`naviy-axloqlilikning asosiy sifatlari sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, o`z atrofdagilarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir o`quvchining o`zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabatni qaror toptiriladi.

O`quvchilar ma`naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish – aniq maqsadga yo`naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon bo`lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

1. O`quvchilarga ma`naviy-axloqiy me`yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to`o`risida ma`lumotlar berish.
2. O`quvchilarda ma`naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo`lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma`naviy-axloqiy ongini qaror toptirish.
3. O`quvchilarda ijobiy mazmundagi ma`naviy-axloqiy sifatlar (bilimlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehr-muhabbat, vatanga, xalqqa muhabbat, ota-ona va kattalarga hurmat, insonparvarlik, saxovat, burchga sadoqat va hokazolarni) qaror toptirish.
4. O`quvchilarda ma`naviy-axloqiy mazmundagi xulq-atvor, xarakter va irodani shakllantirish.
5. O`quvchilar ma`naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish.

O`quvchilar ma`naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi tarixiy-ob`ektiv sharoitda shaxs tomonidan jamiyat taraqqiyoti, insonlarning o`zaro hamkorlik, aloqa doiralarining kengayishi takomillashuviga ko`rsatiladigan ta`sirning ijobiy mo``tadil holatda bo`lishini ta`minlashda ko`rinadi. Ma`naviy ahloqiy sifatlarning qaror topishi quyidagi umumiy mazmun asosida ro`y beradi:

- o`quvchining ma`naviy-axloqiylik darajasi ijtimoiy munosabatlar jarayonida, uning jamiyat, atrof-muhit va tabiatga bo`lgan yondoshuvida namoyon bo`ladi;

- o'quvchining ma'naviy-axloqiylik darajasi u mansub bo'lgan jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti darajasiga bog'qliq;
- o'quvchining ma'naviy-axloqiy kamoloti ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida tashkil etiladigan uzluksiz, tizimli ta'lim tarbiyaning yo'lga qo'yilishi natijasida vujudga keladi;
- o'quvchining ma'naviy-axloqiy kamoloti ijtimoiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishida ijobiy natijalarga olib keladi;

O'quvchilarning axloqiy- estetik tarbiyasini amalga oshirish quyidagi tamoyillarga muvofiq yo'lga qo'yiladi:

1. Ahloqiy- estetik tarbiyaning ijtimoiy-g'oyaviy asosga ega ekanligi. Ushbu tamoyil ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiyaning yagona g'oya O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, milliy mafkura g'oyalarining o'quvchilar o'rtasida targ'ib etishda ifodalanadi.
2. Ahloqiy- estetik ta'lim va tarbiyaning izchil, tizimli uzluksiz tashkil etilishi. Ushbu tamoyil o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy bilimlar berish, ularda ijtimoiy-amaliy faoliyat ko'nikma va malakalarini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiya ishining tizimlilikini ta'minlash, bir maromda doimiy tashkil etilishiga erishishda namoyon bo'ladi.
3. Axloqiy- estetik ta'lim-tarbiya g'oyalarining aniq maqsadga yo'naltirilganligi. O'quvchilar o'rtasida tashkil etilayotgan ahloqiy- estetik tarbiyani yo'lga qo'yishdan ko'zlangan yagona maqsad ularda ma'naviy-axloqiy sifatlar, ma'naviy-axloqiy madaniyatni qaror toptirishdan iboratdir. Mazkur tamoyil ana shu g'oyani yoritishga xizmat qiladi.
4. O'quvchilar ahloqiy- estetik madaniyatini shakllantirishga har tomonlama (kompleks) yondashuv. Ushbu tamoyil o'quvchilar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik, darsda, sinfdan va maktabdan tashqari ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish, ahloqiy- estetik tarbiyani olib borishda oila, ta'lim muassasalari, mahalla, ijtimoiy tashkilotlar, davlat va jamiyat imkoniyatlaridan birdek samarali foydalanishni nazarda tutadi.

5. O`quvchilar ahloqiy- estetik tarbiyasini tashkil etishda tarixiy vorislik hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ularda ilgari surilgan g`oyalarga tayanib ish ko`rish. Ushbu tamoyil ma`naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda milliy tarixiy tajriba, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ularning g`oyalari ta`sir kuchiga tayanib ish ko`rishni o`zida ifoda etadi.
6. Ijtimoiy faoliyatning insonparvarlik va demokratik xususiyatlarga ega ekanligi. Ushbu tamoyil o`quvchilar ma`naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishda insonparvarlik va demokratik tamoyillarning ustuvorligi (o`quvchi shaxsini hurmat qilish, uning qadr-qimmatini yuqori qo`yish, huquq va burchlarini hurmat qilish) ni ifodalaydi.
7. Axloqiy ong va estetik faoliyat birligi. Ushbu tamoyil axloqiy – estetik bilimlarni o`zlashtirish, bu boradagi faoliyatni tashkil etish, o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan nazariy ahloqiy- estetik bilimlarning amaliyotdagi ijrosini ta`minlash asosida bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirib borishni anglatadi.

Axloqiy- estetik tarbiyani integratsiyalashgan tizimini tashkil etish-bu faol jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat ijobiy hislatlarni shakllantirishni, balki salbiy sifatlarini bartaraf etishni, har qanday axloqsiz hatti-harakatlarga qarshi kurashga o`quvchilarni undashni ham ko`zda tutadi. Axloqiy- estetik tarbiya jarayonida o`quvchi (tarbiyalanuvchi) ning o`z-o`zini tarbiyalashni kuchaytirish katta ahamiyatga ega. Axloqiy-estetik tarbiya jarayonida barkamol shaxs tarbiyalanib voyaga yetkaziladi.

1.2. Shaxs axloqiy-estetik madaniyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari.

Shaxsning axloqiy – estetik madaniyatini shakllantirishga qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu muammoni falsafa, etnografiya, etika, estetika fanlari tadqiq etadi.

Madaniyat-arabcha so'z bo'lib, u jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuidir. Demak, madaniyat-insoniyat faoliyati mahsuli natijasi sifatida, insonlarning moddiy va ma'naviy faoliyatlari jarayonida vujudga keladi.

Madaniyat jamiyat taraqqiyoti darajasini xarakterlovchi, ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida mujassam bo'ladigan tizim bo'lib, shaxsning ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy mazmunini tashkil etadi. Bundan madaniyat shaxs va uning faoliyati o'rtasidagi o'zaro ta'sirga doir qonuniyatlar, shu jumladan, shaxs va jamiyatning borliqqa bo'lgan ma'naviy munosabatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi shaxsning talabi, qiziqish xohishiga mos ravishda uning madaniy faoliyatini tashkil qilish yo'llari, ma'naviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari tizimi, shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi va ma'naviy madaniyatni shakllantirish qonuniyatlari majmuidan iborat, degan xulosa kelib chiqadi.

Madaniyat shaxs kamolotiga moddiy (texnika, ishlab chiqarish tajribasi, moddiy boyliklar) va ma'naviy (fan, adabiyot, san'at, maorif, din, umuminsoniy va milliy ma'naviy-ruhiy qadriyatlar) jihatdan ta'sir etadi. Moddiy va ma'naviy madaniyatni uning ma'naviy madaniyati ta'sirisiz, inson ongi va faoliyatidan tashqari yaratilmaydi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri natijasida aqlan yetuk, axloqan yaxlit shakllangan shaxs tarkib topadi.

Inson biror moddiy boylik yaratar ekan, avvalo, uning qurilishi, ishlab chiqarish jarayoni va ta'lim-tarbiyaviy natijasini o'z ongida tasavvur etadi, amaliy ahamiyatini oldindan ko'ra biladi.

Shaxs tashqi olam, voqea va hodisalarni aql, idrok ruhiy holat, ichki kayfiyatlar orqali qabul qilib olishi jarayonida ma'naviy madaniyat tashkil topadi. Yuksak ma'naviy madaniyatli insonda vatanga muhabbat, samimiy do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mustahkam e'tiqod, iymon, nafosat, axloqiy madaniyat singari fazilatlar mujassamlashadi. Uning sifat darajasi kishilarning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga xalqning ma'naviy merosiga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy madaniyatning negizi hisoblangan umuminsoniy va milliy qadriyatlar shaxsning ijtimoiy tuzumi ustqurmalariga munosabati, turli ma'rifiy-madaniy o'oyalar, tushunchalar, qarashlar, tasavvurlar tizimining mahsulidir. Ma'naviy-axloqiy madaniyatning mohiyatini namoyon etuvchi ob'ekt shaxs hisoblanadi.

Shaxs sifatida shakllanadigan o'quvchining ma'naviy kamolotida axloqiy madaniyatning ahamiyati benihoya katta. Axloqiy madaniyatga axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori, xatti-harakatlarini boshqarish tizimidir. Axloqiy madaniyat o'quvchining ko'p qirrali faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi.

Axloqiy madaniyatning ko'rinishlari, uning qirralari va namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, haqiqatgo'ylik, mas'uliyatlik, saxiylik, kamtarlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Bu xislatlar faoliyat jarayonida ma'naviy madaniyatning boshqa madaniyat qirralari bilan birgalikda o'quvchi ongi va xulqiga ta'sir etadi.

Axloqiy ong axloqiy madaniyatning negizida tashkil etadi. Axloqiy ong ijobiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Uning mezoni axloqiy bilim, axloq normalari, axloqiy tafakkur hisoblanadi. O'quvchining axloqiy ongi uning xulq-atvorida mehnatsevarlik, vatanparvarlik va boshqa yuksak ma'naviy-axloqiy

sifatlarni namoyon etadi. Shuning uchun axloqiy madaniyatning muhim vazifalaridan biri axloqiy ongni yuqori poʻnaga koʻtarishidir. Shu boisdan axloqiy ongning yetukligiga erishish uzoq davom etadigan va murakkab jarayon boʻlib, u insoniyat qoʻlga kiritgan barcha axloqiy-maʼnaviy yutuqlarni oʻzlashtirish va shu bilan bir qatorda, muayyan sharoit taqozo etgan muammolarni bartaraf etish jarayonida amalga oshadi.

Bundan tashqari shaxs maʼnaviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish, jamiyat talabi va shu jamiyatda yashayotgan odamlarning mazkur axloq normalariga ehtiyoji qiziqishi asosida maʼnaviy tarbiyaning maqsad va vazifalari belgilanadi.

Axloqiy-estetik mazmundagi taʼlim tarbiya ishini tashkil etish taʼlim muassasasi pedagogik jamoasining umumiy ishining tarkibiy qismi boʻlib, ularning oʻtkazilishida maktab rahbariyati, kasaba uyushmasi aʼzolari, tajribali mutaxassis oʻqituvchilar, mahalla kengashlari, ota-onalar qoʻmitasi, oʻquvchilarning oʻz-oʻzini boshqarish organlari, shuningdek, jamoat tashkilotlari, xodimlari ham ishtirok etadilar.

Taʼlim muassasalarida axloqiy-estetik tarbiyani yoʻlga qoʻyishning quyidagi turlari alohida ahamiyatga egadir: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar, koʻriklar, konferentsiya, bahs-munozara va boshqalar.

- estetik axloqiy tarbiyani integratsion shaklda tashkil etishda tarbiyaviy tadbirlar umumiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida taʼlim muassasalari faoliyatini tashkil etishda oʻz oʻrni va ahamiyatiga ega. axloqiy – estetik tarbiyaning qamrovi keng, shu bois, ularni qanday shakl va uslubda oʻtkazilishi mutaxassis-oʻqituvchining tajribasi, mahorati hamda oʻquv muassasasi rahbariyati, jamoasining, fan oʻqituvchilarining tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlashi, ularga tashkiliy jihatdan yordam koʻrsatish, shu bilan birga oʻquvchilarning istak-xohishlari, qiziqishlari, ehtiyolari va ijtimoiy faolliklariga bogʻliq. Maʼnaviy-axloqiy, estetik mazmundagi tadbirlarni oʻtkazish ushbu tarbiyani tashkil etishdagi koʻzlangan asosiy maqsadga xizmat qilmogʻi kerak.

Donolardan biri go`zallik axloq odobning tug`ishgan singlisidir, degan ekan. Darxaqiqat, bu juda to`g`ri ta`rif. Odatda odob va nafosat tarbiyasi o`zaro chambarchas bog`liq xolda amalga oshiriladi. Chunki nafosat tarbiyasining natijasi odob- axloqda, chiroyli xatti xarakat, go`zal munosabatlarda va hayotga, kelajakka, insonlarga, tabiatga bo`lgan muxabbatda ko`rinadi. Xalqimiz «Kamtarlik xam xusn» deydi. Mana shu birgina iborada chuqur ma`no bor. Nafosat tarbiyasi tufayli yoshlarda kamtarlik xislati tarkib topadi. Bu xislat kishilarning eng go`zal, eng chiroyli belgisidir.

«Kishining chiroyi yuzida» deydi xalqimiz. Bir go`zal tabassum kishilarga misoli quyosh bo`lib, qalblarga iliq nur taratadi. Kishi biror asarni o`qib, chexrasi yorishib ketadi. Yoki biror kuy, ashula tinglasa, boshi mayin tebranadi, biror go`zal rasm, manzarali tasvirga boqib undan ko`z uzolmay qoladi, qalbi quvonchlarga to`ladi. Xunuk xatti-xarakatlardan nafratlana bilish tuyg`usini xam nafosat tarbiyasi paydo qiladi. Bunda badiiy asarlarning roli muximdir. Masalan: «Zumrad va Qimmat» ertagidagi Qimmat xar qancha bo`lsa xam uning xulq-atvori, xatti-xarakati o`quvchi qalbida nafrat uyg`otadi. Zumradning tevarak atrofga munosabati, mehnatsevarligi, kamtarligi, sezgirligi, shirin so`zligi kabi xislatlari esa, aksincha, qalblarda qoniqish, quvonch, iliqlik, tabassum, unga xayrixoxlik paydo qiladi.

Shuni aloxida qayd etish o`rinliki ayrim yoshlar go`zallikni tor ma`noda tushunadi. Ya`ni, chiroyni ko`pincha xusni jamolda deb bilishadi. Bu bir tomonlama tushunchadir. Xar tomonlama to`liq ma`noda esa chiroy, xusn jamol qalb go`zalligida, ma`noli so`zdadir. Xalqimiz «Chiroy xusnu jamolda emas, fazlu kamolda» deb bejiz aytmagan. Estetik did, estetik qobiliyat, xissiyot madaniyati birdaniga paydo bo`lmaydi, tabiatdan tayyor xolda berilmaydi. Xar qanday insoniy qobiliyat qatorida go`zallik tuyg`usi xam tarbiyalash, rivojlantirish, takomillashtirishga muxtojdir. Bularning xammasida insonning go`zalligi namoyon bo`ladi. Xalqimiz «Yaxshi xusningni yomon xulqing buzadi» deb bekorga aytmagan.

Madaniyatlilik, tarbiya ko`rganlik insonning tashqi qiyofasida xam namoyon bo`ladi. Ko`cha-ko`yda, uchrashuvlarda kishilarni uchratar ekanmiz, avvalo, uning tashqi qiyofasiga nazar tashlaymiz.

Shunga qarab unga nisbatan bir fikrga kelamiz. Zero, hamma joyda doimo kishiga yuzlab ko`zlar qarab turadi: u qanday kiyingan, qanday qadam tashlayapti, o`zini qanday tutayapti? Pokizalikka, ozodalikka xar bir inson oldidagi muxim vazifalardan xisoblanadi. Ozoda kiyinish, badanni toza saqlash, sochni tarab oro berib yurish, kiyim boshni va uy-joyni ozoda tutishi kishi rioya qilish kerak bo`lgan eng oddiy va eng zaruriy talablardandir. Ust boshi g`ijimlangan, soqoli olinmagan kishi ko`zga sovuq ko`rinadi. Tirnoqni xaddan ortiq o`stirish, oshirib pardozi qilish kulgilidir. Sochi g`alati qilib turmaklangan, ko`zga tashlanib turadigan katta zirak taqqan, bo`yniga katta marjon osgan qizlar, sochini yelkasiga tushirib, xurpaytirib yurgan yigitlar ko`zga xunuk ko`rinadi. O`zining tashqi qiyofasiga e`tibor berib yurish, xar bir kishining muxim ijobiy xislatidir. Lekin unga oro berish birdan bir maqsad bo`lib kelsa, uning boshqa barcha ma`nfaatlari shunga moslashtirib qo`yilsa, bu xol ijobiy bo`lmay qoladi. Xaqiqiy tarbiyalanganlik chiroyli gapirishni taqozo etadi.

Qad qomatni tik tutish, chiroyoli turishni taqozo etadi. Ko`p yoshlar buni bilishmaydilar. Ba`zilar lapanglab, qo`l siltab, yelkani chiqarib yuradilar, qo`llarini cho`ntaklariga solgan xolda gapiradilar, stulga oyoqlarini chalkashtirib o`tiradilar. Kishilar o`rtasida bo`lganda o`ziga oro berish, tez-tez ko`zguga qarash, bezanib sochini tarash qiz ola, ayollarga yarashmaydi. Ayrim yoshlar yasama, sun`iy «go`zallik» bilan o`zlarini badbashara qilib qo`yadilar, ular xaqiqiy go`zallik yuzning tabiiy latofatida, sodda va xushbichim kiyimda ekanligini unitib keldilar. Kishining tashqi go`zalligi kiyim ranglarining bir-biriga mos kelishida, tabiiylik va soddalikda juda yaqqol ko`rinadi. Ko`zga tashlanmagan xolda kishining xusniga tabiiy latofat va nafosat beradigan uning ayrim kamchiliklarni bilintirmay ketadigan ust-bosh kiygan ma`qul.

Nafosat tarbiyasi barcha yoshdagi kishilarga birdek zarur. Ammo butun tarbiya tizimida amalda isbotlanganidek, nafosat tarbiyasini singdirishni insonning bolalik davridan boshlash nixoyatda muxim. Bu davr inson hayotida fe'l-atvor, iroda, did, go`zallik tuyg`usi va hayotiy tushunchaning paydo bo`lish va shakllanish davridir. Bolalikda aql-farosat, axloqiy ko`nikmalarni tarbiyalash bilan bir qatorda, ularda chiroyli, nafis, go`zal narsalardan zavq ola bilishni, go`zallikni qo`pollikdan tez ajrata olish qobiliyatini tarbiyalashimiz kerak. Go`zallikni xunuklikdan ajrata olish, go`zallikni sevish, unga intilish qobilyati soddalikdan murakkablikka qarab o`sib boradi. Bola 4-5 yoshdayoq kiyinishdagi go`zallikka, ixchamlikka, nafislikka, chiroylilikka e`tibor bera boshlaydi, 9-10 yoshlarda esa yurish-turishdagi, xatti-xarakatdagi go`zallikning xam farqiga yetadigan bo`ladi, 14-15 yoshlarda mehnatdagi, ijtimoiy hayotdagi go`zallikni xam anglash qobiliyatiga ega bo`ladi. Lekin bu gap besh yoshli bolalarga ijtimoiy hayotdagi go`zallik xaqidagi tushunchalar berishning xojati yo`q degan fikrni bildirmaydi. Yosh bolalarga xam mehnat xaqida, hayot xaqida gapirib berish mumkin, ammo bu suxbatlar nixoyatda sodda, ixcham va bola xurmat qiladigan biror kimsaning ishlari misolida olib borilsa, ayni muddao bo`ladi. Nozik didni, go`zallik tuyg`usini shakllantirishda go`zal muxitning roli katta. Biz chiroyli muxit deganda bolaga chiroyli ko`ringan, uning qalbida zavq-shafq uo`g`otadigan narsalar, buyumlar, voqealar, xodisalarni tushunamiz. Bunda oila, maktab va jamoatchilik asosiy rol o`ynaydi. Nafosat tarbiyasi orqali o`z- o`zini boshqarish shakllanadi. Bu o`z-o`zini asta-sekin talabchanlikni keltirib chiqaradi. O`z-o`zini tergash, o`zini mustaqil, ongli, oqilona boshqarish, o`z xulq-atvori, xatti-xarakatiga baxo bera bilish ko`nikmalarini egallash demakdir. Nafosat tarbiyasiga doir bilim va malakalar asosan dars jarayonida-o`qish, musiqa, ona tili, tabiat, tasviriy san`at, tarix, geografiya va jismoniy tarbiya kabi darslarda beriladi. O`qish darslarida nafosat tarbiyasi ifodali o`qish, texnika vositalaridan foydalanish, did bilan chizilgan rasmlar saxna o`yinlari orqali o`quvchi ongiga singdirilib boradi. Shuningdek turli janrdagi badiiy asarlarni o`qish, she`rlarni yodlash, jumladan yertak, rivoyat, xikoyalarni o`rganish orqali bola so`z qudratidan zavqlanadi,

xayajonlanadi, ta'sirlanadi. O'zini sirli voqealar ichida yurgandek xis etadi, butun vujud quloqqa aylanadi.

Turli kechinma, kayfiyat, xis-tuyg'u qalbni qamrab oladi. So'z qudrati uni sexrlab butunlay o'ziga jalb etadi, ergashtiradi. Nafosat tarbiyasi vositalaridan eng muximi san'atdir. San'atning barcha tur va janrlari o'ziga xos ta'sir kuchiga ega, yosh o'sa boshlagani sayin bolaga san'atning u yoki bu turiga qiziqish almashib boradi. San'atning eng ta'sirchan turlaridan biri musiqadir. Bola xali yosh o'qish, chizishni bilmaydigan paytda xam musiqaning sexrli to'lqinini qabul qilishi ulardan oziqlanishi mumkin, musiqaning ilk ta'siri ona allasi bilan bog'liq. Ona allasi, mayin, jozibali shirador, tasirchan bo'lgani uchun xam bola undan orom olib uyquga ketadi. Musiqa bolaning eshitish qobilyatini yaxshilaydi. Uning ruxiyatiga yumshoqlik, fe'l-atvoriga muloyimlik bag'ishlaydi, xaqiqiy musiqa asarlaridan eshitib ulg'aygan bola o'rtoqlari orasida ajralib turadi. San'atning kichik turi-tasviriy san'at xam nafosat tarbiyasida muxim o'rin tutadi.

Rasm chizishga bo'lgan qiziqish aksariyat bolalarda yoshligidan boshlanadi. Rasm chizishga bo'lgan xavas bolalarda ijodkorlik qobilyatini tarbiyalaydi, xotirasini shakllantiradi, xayolni o'sishiga yordam beradi. Go'zallik va xunuklikka bo'lgan o'z munosabatini bola o'zi chizgan rasmlari orqali ifodalashga xarakat qiladi. Bola o'zi yaxshi ko'rgan kishisini yoki biror narsani chiroyliroq va nafisroq chizishga xarakat qiladi, yomon ko'rganlarini esa mazxaralash shaklida chizishga intiladi. Biz bolalar hayotidagi bu jarayonlarni puxta bilib, ularga yordam berishimiz lozim. Bir so'z bilan aytganda, axloqiy va estetik tarbiyasining integratsiyalashgan tizimi barkamol shaxsni tarbiyalashdagi asosiy omillardan biri bo'lib, shaxsni har tomonlama garmonik tarbiyalashga zamin yaratadi. Biroq, insonni kamolga yetkazishda har bir shaxsga o'ziga xos munosabatda bo'lish ta'lim-tarbiyaning asosiy tamoyillari ekanligini unutmasligimiz lozim.

1- bob bo'yicha xulosa

Shaxs sifatida shakllanadigan o'quvchining ma'naviy kamolotida axloqiy madaniyatning ahamiyati benihoya katta. Axloqiy madaniyatga axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori, xatti-harakatlarini boshqarish tizimidir. Axloqiy madaniyat o'quvchining ko'p qirrali faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi.

Axloqiy madaniyatning ko'rinishlari, uning qirralari va namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, haqiqatgo'ylik, mas'uliyatlik, saxiylik, kamtarlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Bu xislatlar faoliyat jarayonida ma'naviy madaniyatning boshqa madaniyat qirralari bilan birgalikda o'quvchi ongi va xulqiga ta'sir etadi.

Axloqiy ong axloqiy madaniyatning negizida tashkil etadi. Axloqiy ong ijobiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Uning mezonini axloqiy bilim, axloq normalari, axloqiy tafakkur hisoblanadi. O'quvchining axloqiy ongi uning xulq-atvorida mehnatsevarlik, vatanparvarlik va boshqa yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni namoyon etadi. Shuning uchun axloqiy madaniyatning muhim vazifalaridan biri axloqiy ongni yuqori po'zonaga ko'tarishidir. Shu boisdan axloqiy ongning yetukligiga erishish uzoq davom etadigan va murakkab jarayon bo'lib, u insoniyat qo'lga kiritgan barcha axloqiy-ma'naviy yutuqlarni o'zlashtirish va shu bilan bir qatorda, muayyan sharoit taqozo etgan muammolarni bartaraf etish jarayonida amalga oshadi.

Bundan tashqari shaxs ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish, jamiyat talabi va shu jamiyatda yashayotgan odamlarning mazkur axloq normalariga ehtiyoji qiziqishi asosida ma'naviy tarbiyaning maqsad va vazifalari belgilanadi.

Axloqiy- estetik mazmundagi ta'lim tarbiya ishini tashkil etish ta'lim muassasasi pedagogik jamoasining umumiy ishining tarkibiy qismi bo'lib, ularning o'tkazilishida maktab rahbariyati, kasaba uyushmasi a'zolari, tajribali

mutaxassis o`qituvchilar, mahalla kengashlari, ota-onalar qo`mitasi, o`quvchilarning o`z-o`zini boshqarish organlari, shuningdek, jamoat tashkilotlari, xodimlari ham ishtirok etadilar.

Ta`lim muassasalarida axloqiy- estetik tarbiyani yo`lga qo`yishning quyidagi turlari alohida ahamiyatga egadir: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar, ko`riklar, konferentsiya, bahs-munozara va boshqalar.

- estetik axloqiy tarbiyani integratsion shaklda tashkil etishda tarbiyaviy tadbirlar umumiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ta`lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda o`z o`rni va ahamiyatiga ega. axloqiy – estetik tarbiyaning qamrovi keng, shu bois, ularni qanday shakl va uslubda o`tkazilishi mutaxassis-o`qituvchining tajribasi, mahorati hamda o`quv muassasasi rahbariyati, jamoasining, fan o`qituvchilarining tashabbuslarini qo`llab-quvvatlashi, ularga tashkiliy jihatdan yordam ko`rsatish, shu bilan birga o`quvchilarning istak-xohishlari, qiziqishlari, ehtiylari va ijtimoiy faolliklariga bog`liq. Ma`naviy-axloqiy, estetik mazmundagi tadbirlarni o`tkazish ushbu tarbiyani tashkil etishdagi ko`zlangan asosiy maqsadga xizmat qilmog`i kerak.

II-bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy va estetik tarbiyani integratsiyalashgan tizimini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

2.1. Ta'lim-tarbiya jarayoniga axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimini joriy etishda - Sharq mutafakkirlari asarlari asosiy vosita sifatida

Insoniyat taraqqiyotida avloddan-avlodga ko'chib, tarix sinovlaridan o'tib kelayotgan umuminsoniy va madaniy-ma'naviy qadriyatlar, milliy an'analar, axloqiy omillar va urf-odatlar muxim ahamiyat kasb etib kelgan. Chunki ular xalqning jamoa ijodkorligining maxsuli bo'lib, insonlarning talab-extiyojlari zahirida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, dunyo karashi, tafakkuri, orzu-armonlari, e'tiqodi va axloq odobi qoidalarini o'zida mujassam etgan, jamiyatning ma'naviy madaniy rivojiga katta xissa qo'shuvchi moddiy va ma'naviy boyligi bo'lgan.

IX-XII asrlar davomida O'rta Osiyo jaxonga Xorazmiy, Farg'oniy, ibn Sino, Beruniy, Marg'iloniy, M, Qoshg'ariy kabi ulkan olimlarni taqdim etdi. Bu olimlar o'z ijodlari, asarlari bilan o'z xalqlarining, umuman, O'rta Osiyoning shuhratini olamga yoydilar.

Bu davrda yashagan mutafakkir olim, shoir va dinshunoslarning asarlarida ta'lim-tarbiya va axloq odobga oid pedagogik fikrlar, ijtimoiy taraqqiyot uchun muxim bo'lgan insonparvarlik, bilimga e'tiqod, xalq manfaatini ximoya qilish, ma'naviyatni ulug'lash, komil inson va jamoaga erishish, imon-e'tiqod, guzallik insonparvarlik, xalollik, do'stlik kabi insoniy fazilatlar kabi masalalar yoritildi. Bunday fazilatlarni o'z asarlarida ilgari surgan mutafakkirlardan biri A. Yugnakiydir. O'z zamonasining iste'dodli shoiri, adibi, donishmandi A.Yugnakiy XII asrlarda tavallud topadi. A.Yugnakiydan bizga yodgorlik bo'lgan asar «Xibot-ul xaqoyiq» («Xaqiqatlar armug'oni»)dir. Bu kitob badiiy so'z sa'nati va adabiy tilning juda qimmatli, nodir yodgorligidir. Ulug'

mutafakkir ushbu asarida o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettirishi bilan birga, ta'lim tarbiyaga doir qarashlarini ham ifodalagan.

Kishilik jamiyatida madaniy hayot, ma'rifat, odob- axloq, ijtimoiy, iqtisodiy hayot ilmsiz rivojlanish mumkin emasligini anglab yetgan A. Yugnakiy o'z asarlarida uning mohiyatini keng ko'lamda ifodaladi, o'z ta'limotini So'fizmg'oyalari asosida ilgari surdi. Bunda u So'fizm ta'limotining tariqat usulidan foydalanib, musulmon farzandlarini halol mehnatga, islom dini talab qilgan namoz, ro'za, exson, xaj, jixat kabi zaruriy talablarga rioya qilishga chorladi.

A. Yugnakiy ta'lim-tarbiya xaqidagi qarashlarida to'g'rilik masalasi xam muxim o'rinni egallaydi. Iymoni but inson, -deb yozadi u to'g'ri, xaqgo'y, adolatli, axloq-odobli bo'ladi. Iymon o'zida bunday fazilatlarni mujassamlashtiradi. Ma'lumki, jamiyat ijtimoiy hayotining taraqqiyotiga to'g'rilik, xaqgo'ylik, adolat eng yuksak o'rinda turadi. Jamiyat siyosiy tuzumi uchun ham iqtisodiy tuzumi uchun ham eng zarur omil, jamiyatning zamini xisoblanadi. Shunga ko'ra jamiyat a'zolaridan xalollik bilan o'zaro to'g'ri munosabatda bo'lish talab etiladi. Bunda, eng avvalo, yosh avlodni to'g'rilik, xolislik tuyg'ulari bilan tarbiyalash muxim ahamiyat kasb etadi.

A. Yugnakiy to'g'rilikni og'iz va tilning ziynati, bezagi deb biladi.

Bu xususida u shunday deydi:

Og'iz til bezagi ko'ni so'z turur,

Ko'ni so'zla so'zni, tilingni beza, (mamuni; og'iz va tilning ziynati to'g'ri, xaq so'zdir, shunga ko'ra sen to'g'ri so'zla, so'zingni va tilingni shirin qil.)

Adib xaq so'zni asalga qiyos qiladi, yolg'on so'zni sarimsoq piyozga o'xshatadi;

Kuni so'z asaldek bu yolg'on basal,

Basal yeb achitma og'izi asal.

(Mazmuni: xaq so`z asal kabi, yolg`on so`z sarimsoq piyoz kabi, sarimsoq piyoz yeb, asaldek og`izni achchiq qilma).

A. Yugnakiy o`z asarida saxovatlilikka xam katta e`tibor qaratadi.

A. Yugnakiyning fikricha, saxovatlilik eng yaxshi insoniy fazilatdir.

Saxovatlilik jamiyatda xalol mehnat orqali topilgan boylikning ma`lum ulushini taqsimlashdan iborat bo`lgan. Axillik Qur`oni Karim va Xadis ilmida xalol yo`l, to`g`rilik bilan topilgan boylikdan exson qilish asosida amalga oshirilgan. Saxovatlilik ochko`zlikka nisbatan ijtimoiy xususiyat kasb etgan, xayr-exson yovuzlikni daf qiluvchi kuch, saxiy odam jamiyatda yetishmovchilik yuz bergan, ochlik sodir bo`lganda, faqirlarga iqtisodiy jixatdan ko`mak berganlar saxovatli kishilar, deb maqtalgan, baxillik qoralangan.

A. Yugnakiy saxovatlikni ulug`lab, baxillikni qoralaydi;

Axi erni o`gg`il o`gar ersa sen,

Baxilga qatig` yo o`qun qizlagil.

(Mazmuni; Axi(saxiy) kishini maqtasalar, sen xam uni maqtagin, baxilga esa qattiq tortilgan o`q-yoyni yashirib qo`ygin.)

Adib odamlarni saxiylikka chorlab, saxiylikning moxiyatini bayon etadi. uning uqtirishicha, «saxiylik odamlarni yomoonliklardan saqlaydi, mushkulini oson, odamlarni bir-biriga mexr-oqibatli qiladi.»

Ta`lim tarbiya xususidagi qarashlarida A. Yugnakiyning tavorzelik masalasiga xam katta e`tibor berganini ko`ramiz.

Ma`lumki, insoniyat ma`naviy-madaniy hayotida yoshlarda ezgulik tuyg`usini tarbiyalash masalasi muxim o`rinda turadi. Ezgulik tarbiyasi islom dini asosida, Qur`oni Karim hamda Xadis ilmi talablariga muvofiq ravishda olib borilgan. Bu soxada tasavvur ilmi qoidalariga xam amal qilingan. Biz bilamizki, tasavvur ilmi qoidalarida insonni tavorzelik ta`limoti asosida

tarbiyalash muxim axamyat kasb etgan. Tasavvur qoidalariga ko`ra, tavozelikni Tangri buyurgan toat-ibodatlarni bajarish bilan ado etish talab qilingan, tavozelikni ado etishda kamtar bo`lish talab etilgan. Ana shu talablardan kelib chiqqan xolda A. Yugnakiy tavozelik insoniyat tarbiyasida muxim ekanligini ko`rsatib, musulmon axlini tavozeli bo`lishga chaqiradi.

Tavozi' qiliqni quturar idi,

Takabbur tutar erin kelishur kudi.

(Mazmuni; Tangri Taolo tavoze qilgan musulmonlarni yuqori darajaga ko`taradi, o`zini takabbur tutgan kishilarni tubanlashtiradi.)

A. Yugnakiy ta'lim-tarbiya xaqida fikr bildirar ekan, xasislik, ochko`zlikni yomon xislat sifatida qoralaydi. Chunki bu xislatlar jamiyat hayotida salbiy xolatdir. Ochko`zlik jamiyat boyligini hamda shaxs mulkini turli yo`llar bilan talon-taroj qilinishiga olib keladi, xasislik odamlar orasida xasad paydo qiladi. Xasis kishilar turli yo`llar bilan boylik to`plashga xarismand bo`ladi. Xasis kishi o`lib ketsa, uning boyligi o`zga kishilarga qolib ketadi. Shunga ko`ra, shoir odamlarga nasixat qilib shunday deydi;

Bu dunyo so`ngida yugurmak kecha,

Xasis nangtin o`tru deb uzung kucha.

Neluk malga muncha ko`ngul bog`lamoq,

Bu mol kelsa orta borur boz kecha.

Ko`nguldin chiqarqil tavar suqluqin,

Ketim birla teb tut qorin to`qluqin.

(Mazmuni; Bu dunyoning (boyligi) orqasidan qanchadan-qancha (odamlar) yuguradilar, xasis (kishilar) esa foyda (topaman) deb o`zini qiynaydi. Mol-dunyoga nega shunchalar ko`ngil berasiz, bu boylik kelsa yana orta boradi, ammo yana qo`ldan ketadi. Mol-dunyo uchun suqlikni, ochko`zlikni ko`ngildan

chiqarib tashla, sen kiyim-kechak, qorin to`qligidan boshqa narsalarni o`ylama.)

Kishilik jamiyatida insonlarda ezgulik, yovuzlik xislatlari bo`lgani ma'lum. Ezgulik jamiyat uchun yaxshilik baxsh etgan, yovuzlik jamiyatda salbiy oqibatlarni yuzaga keltirgan. Yovuzlik tufayli yuzaga kelgan salbiy xislatlardan biri baxillikdir. Baxillik xislatiga yo`liqqan inson boshqalardagi yaxshilikni ko`rmaydi, ular erishgan yutuqlarga xasad bilan munosabatda bo`ladi. Jamiyatning rivojlanishiga to`squinlik qiladi. Shu sababli xam xalq baxillik xaqida, «baxillikni bog`i ko`karmas», maqolini yaratgan.

A. Yugnakiy o`z pedagogik qarashlarida baxillikni qoralab, bu xaqida shunday deb yozadi;

Baxil yig`di zar, sim xaramtin o`kum,

Vabol ko`tru bordi uzala so`kum.

(Mazmuni; baxil kishilar xarom yo`l bilan ko`p oltin, kumush yig`di, uvol, isrof qilib, gunoxga botib, la`nat sari bordi.)

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga imon-e`tiqod tarbiyasini berishda

A. Yugnakiyning «Xibat-ul xaqoyiq» asaridan o`rin olgan quyidagi rivoyatidan keltirib, dars va darsdan tashqari vaqtlarda qo`llash pedagogik soxada katta natijalarni beradi.

Bu rivoyat birovlariga yaxshilik qilishdan bosh tortgan, o`zgalarning yutug`ini ko`rib xasad qilgan, yomonlik qilish choralarini ko`rgan kimsalarga qaratilgan.

Keltirishlaricha bir baxil kishi tarki vatan qilib ovoralik yo`lini tutdi va saxroga bosh urib, biyobon kezishga tushdi. Tasodifan, yo`lda ikki kishiga duch kelib qoldi. Bu ikki kishi xam baxil kishi edi. Ular bir-birlari bilan tanishgach, xar uchchovi bir-birining baxil kishilardan ekanligini sezishdi va tezda til

topishib ketishdi. Ular yo`lda ochiqib qolishsa, belga tugilgan nonlarini olishar, bir-birlariga teskari qaragan xolda ovqatlanib, yana yo`lda davom etishar edi. Yo`lda ulardan biri qolganlariga dedi:

-Ey, yoronlar, sizlar nima uchun tarki vatan qilib, ovoralik yo`lini tutdingiz? Nima uchun roxatni musofirlik mehnatiga almashtirdingiz?

Ulardan biri dedi:

-Men yashayotgan joyda menga yoqmaydigan ishlar bo`lib turadi. Ularni ko`rsam rashkim va xasadim qo`zg`ab, doimo ko`nglim ezilib yuradi. Birov birovga yaxshilik qilsa xech ko`rolmayman. O`zinga-o`zim dedim: «Kel bir-ikki kun tarki vatan qilay, ularni ko`rmay tursam, extimol ko`nglim sal taskin topar.» Shunday deb, vatanni tark etib, ovora bo`lib yuribman!

Ikkinchisi so`z boshlab dedi:

-Yo tavba, meni xam qiynagan shu narsa! Shu narsa tufayli, men xam o`z yurtimni tashlab chiqdim! Qayoqqa borishimni o`zim xam bilmayman!

Uchinchisi:

-xar ikkovingiz xam men muhtalo bo`lgan dardga uchrabsiz! Men xam xasad o`tiga chiday olmay, Vatanimni tark etdim!

Xar uchovi o`zora til topishib, bir dardga muhtalo ekanliklarini bilishgach, ittifoq bo`lib yo`lda davom etdilar.

Bir yerga kelishgach yo`ldan bir xamyon oltin topib olishdi. Uzoq o`tirishib oltinni xech bo`lisha olishmadi. Ularning xar biri xasad yuzasidan oltinning borini olish ishtiyoqida yonishar, qolgan ikkita sherigining olishini xoxlashmasdi. Ular oltinni butunlay tashlab ketaylik deyishsa, xasad tufayli boshqa sheriklarining olishini istashmas edi. Shunday qilib, bir kecha-kunduz saxroda jang qildilar. Ochlik va tanshalik ularni xoldan toydirdi.

Ulardan nariroqda o`sha yurt xokami ov qilib yurgan edi. Saxro o`rtasida uch kishining o`tirganini ko`rib, bir kishini yubordi va ularning kim va nima qilib o`tirganini bilib kelishini tayinladi. Xokim yuborgan kishi qaytib kelib:

-Ey xokim, ular uch xasadchi ekanlar. Oltin to`la xamyon topib olishibdi. Bir kecha kunduzdan beri xasad tufayli uni taqsimlashaolmay, jang qilishayotgan ekan!- deb xabar berdi.

Xokim:

-Bundan xam yaxshiroq ov bo`lmaydi!- deb, otdan tushdi va ularni chaqirtirib keldi. So`ng ularga:

-Xar biringiz o`z xasadingizni qay darajada ekanin aytib bering. Shunga qarab oltinni taqsimlaymiz!-dedi.

Birinchisi dedi:

-Ey xokim, mening xasadim shu darajadaki men xech qachon birovga yaxshilik qilolmayman! Mabodo, yaxshilik qilsam, u odam tinch va osuda bo`lsa, men g`amgin bo`laman!

Ikkinchisi birinchisiga qarab:

-Sen baxillik va xasaddan bebaxra ekansan! Mening baxillik va xasadim shu darajadaki, birov-birovga yaxshilik qilsa, o`z molidan birovga berib, u odamni xotirjam qilsa, men o`zimni qayoqqa urishni bilmay qolaman!- dedi.

Uchinchisi:

-Xar ikkovingizda xam baxillik va xasaddan asar yo`q ekan! Sizlarning qilgan da`vongiz bir pul! Mening baxillik va xasadim shu darajadaki, agar biror kishi menga yaxshilik qilsa, foydali so`zlarni aytsa, xasaddan jigarim kuyib ketadi!-dedi.

Ularning gapini eshitgan kishilar yoqalarini tutib, xayratdan barmog`ini tishlab qoldilar.

Xokim ularga:

-Hayot sizlar uchun xaromdir! Xar biringizga loyiq jazo bermoq kerak! Donolar: «Sitamkorga sitam qilmoq adolatdir» deyishgan!- dedi-da, xech kimga yaxshilik qilishni xoxlamagan xasadchini yalangbosh, yalangoyoq, xech bir ovqatsiz saxroning ichkarisiga eltib tashlashni buyurdi. Birovning birovga yaxshilik qilishini ko`rolmaydigan kishining boshini tanidan judo qilib, xasad va baxillik olamidan qutqarishga amr qildi. Uchinchisini esa yalang`och qilib, qo`lini orqasiga bog`lab, bo`yniga tosh osib, daryoda cho`ktirib o`ldirishga farmon berdi.

Shunday qilib, bu uch xasadchi o`z fe`lining qurboni bo`lishdi.

Nazm:

Darmon qabul qilmas illat xasaddir,

Xasadchining doim g`ami bexaddir!

Ey aziz, bu xikoyatni shuning uchun keltirdimki, odamlar xech ranj va balo, xasad va baxillikdan ko`ra og`irroq emasligini bilsinlar! Xasadchi kishi odamlarning shod va xushxolligidan doimo g`am chekadi, alam tortadi! Xa, dunyoda xasad va baxillikdan ko`ra yomonroq dardu alam yo`q! Shunday ekan, sen doim bunday kishilardan uzoq yur, ularning suxbatidan qoch!

Oqil kishi dunyoning g`am alami va bor-yo`g`iga qayg`urmaydi. Ortiqcha mol topishga intilmaydi. Mol va pul uchun faqat joxil kishilargina intiladilar, takabburlik bilan tumshuqlarini ko`tarib, izzat va obro` topish ketidan quvadilar.

Ey oqil, ochko`zlik va baxillikni o`zingga shior qilib, mol va pul topishning payidan bo`lma! Xasad va baxillik ko`chasidan qoch! O`zgalarga doimo madad qo`lini cho`z! Xasad va rashkdan xech kim foyda ko`rmagan. Aksincha, el orasida xoru zor bo`lib, e`tibordan chetda qolgan.

Ey o`g`il, sen gapirmoqchi bo`lsang,- avvalo gapingni yaxshilab o`yla, so`ng gapir. Zarurat paydo bo`lgandagina so`zlashga odatlan. Bo`lmasa jim o`tir! Ko`p o`ylab, oz so`zlashda xikmat ko`p. Bundan chiqadigan xulosa inson insof, imon, diyonat, mexr, yaxshilik, qo`li ochiqlik, sabirlilik, to`g`rilik, poklik yo`lidan borsa, u xech qachon xor bo`lmaydi. Baxillik qilish uchun ko`nglida yomonlik sezmaydi,- degan xulosaga keladi.

Buni boshlang`ich sinf o`quvchilariga tushuntirish, hayotlariga singdirish o`qituvchi- pedagogning vazifasi xisoblanadi.

Insoniyat madaniyati xazinasida shunday noyob kimsalar, nodir siymolar borki, xamma zaminu-zamonlarda barcha avlodlar ulardan o`zlari uchun xam ruxiy, xam ma`naviy ozuqa oladilar, ularning yog`dularidan muttasil istifoda etib yuradilar. Imom Abu Abdullox Muxammad ibn Ismoil al- Buxoriy shunday olamshumul siymolar qatoridan sharaflı o`rin olgan yurtdoshimizdir.

Imom al-Buxoriy yoshlik chog`idayoq otasidan ajraydi va onasi qo`lida tarbiya topadi. O`n yoshidanoq arab tili va xadis kitoblarini o`qish va ularni yodlashga qunt bilan kirishadi. Keyin buxorolik maxaddislar Muxammad ibn Sallom al-Paykandiy, Abdullox ibn Muxammad al-Masnadiy al Jufiylar xuzuriga borib, ulardan ko`p xadislarni yod oladi. 16 yoshida onasi va akasi Axmad bilan xaj safariga otlanadi. Safar asnosida u, qaysi shaxardan o`tsa, o`sha yerdagi xadis olimlaridan ozmi-ko`pmi dars oladi. Shu tariqa Balx, Basra, Kufa, Bag`dod, Xoms, Damashq, Makka, Madina kabi ko`plab shaxarlardagi mashxur xadis olimlaridan shu ilm asarlarini o`rganadilar.

Imom Ismoil al- Buxoriy «Al-adab al-mufid» («Adab durdonalari») nomli asarining 644-bobida 1322 ta xadis va xabarlarni jam qilgan.

Imom Ismoil al- Buxoriy ushbu asarida axloq odob xaqida fikr bayon etar ekan, odamlarni ota-onaga xurmatda bo`lishga, onani e`zozlashga, mexr-oqibatli, pok va imonli bo`lishga da`vat etadi, yaxshilik qilish insonning muqaddas burchi ekanini aytadi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga Imom Ismoil al- Buxoriy asarlarini o`rgatganda avvalo kichik yoshdagi maktab o`quvchilarining yoshiga moslarini tanlab, ta`lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish lozim.

Imom Buxoriy asarlarida ifoda etib berilgan mana bu rivoyat boshlang`ich sinf o`quvchilariga to`la mos keladi.

Quyoshdan so`rabdilar:

-Sening xaroratingdan zo`rroq xarorat bormi?

Quyosh: -Bor. Bu- ona mexri. U mening taftimdan kuchliroq.

O`limdan so`rabdilar: -Senga bas keladigan kuch bormi?

O`lim: -Bor. Bu ona mexri. U meni xam chekintirishga qodir.

Demak onalar mexri xatto o`limni xam chekintirishga qodir ekanligini I. Buxoriy o`z xadislari orqali ifodalab beradi.

Masalan, ota-onaga doimo xurmatda bo`lish, ota-onaga g`azab qilmaslik, ota-ona bilan gaplashganda yuzni burishtirmaslik, ota-onaning pandu-nasixatlariga quloq solish, ota-onaga barcha yaxshiliklarni ularning hayotida qilish.

Mana shunday xadis namunalaridan bolalar tarbiyasida foydalanish katta axamyatga ega.

RIVOYAT

Bir donishmandning shogirdi ustozidan so`rabdi:

-Ota-onam vafot qildilar, endi nima qilsam ularning haqlarini ado qilgan bo`laman?

-Ota-onangning vasiyatlarini bajo keltir, do`stlarini, yoru-birodarlarini izzat-xurmat qil, aka-ukalaringga, qarindosh-urug`laringga muxabbat bog`la,

qo`lingdan kelganicha ularga yordam ber, yaxshilik qil, o`zing tarbiya, odob doirasidan chiqma,-debdi ustoz.

Ming afsuski, yuqorida qayd qilingan burchlarini bajarmaydigan farzandlar xam yo`q emas. ular voyaga yetganidan yoki uyli-joyli bo`lganidan keyin ota-onaga bemexrlik qilmoqdalar. O`z otasini "boboy" yoki "paxan", onasini esa "mamashka" deb chaqiradilar. Ota-onalari biror gap gapirsa, ularni jerkib tashlaydilar.

Ba`zilar shu darajaga yetmoqdaki, ular qarigan ota-onalarini "Qariyalar uyi"ga topshirmoqdalar. Ayrim farzandlar o`z ota-onalarini urmoqdalar, xatto o`ldirmoqdalar xam.

Xo`sh, bunday tubanlikning ildizi qaerda? Bizningcha, buning ildiz o`sha noqobil farzandda islomiy iymon-e`tiqodning yo`qligida, tarbiyadagi nuqsonlarda.

Imom al-Buxoriyning "Al-Adab al-Mufrad" asarining 1-24 boblari ota-ona xurmatini joyiga qo`yish, ularni e`zozlab dillariga xech bir ozor bermaslik, farzandlar o`z ota-onalari oldidagi burchlarini mukammal ado etishlari zarurligi kabi masalalarga bag`ishlangan. Masalan, asarda shunday rivoyat qilinadi:

Saxobalardan Muslim ibn Xayyida Payg`ambar alayxissalomdan: "Ey Rasulullox, men kimga yaxshilik qilsam bo`ladi?",-deb so`raganlarida, "Onangga",-deb javob berdilar. Men shu savolimni uch marotaba qaytarsam xam, Rasulullox: "Onangga"-deyaverdilar. to`rtinchi marta so`raganimda: "Otangga va yaqin qarindosh-urug`laringga",-dedilar.

Bu xadisda biz onalarning insonyat olamida ulug` zot sifatida qayd qilinganini ko`ramiz.

Ulug` olimning ta`kidlashicha, xar bir odam komil inson bo`lishi uchun o`zi yaxshi ko`radigan narsasini o`zgalarga xam ravo ko`radigan bo`lishi kerak.

Buxoriyning tarbiya xaqidagi qarashlarida jaxolat kishi boshiga o`lim keltiruvchi fojea sifatida qoralanadi.

Umuman, ulug` yurtdoshimiz Imom al-Buxoriyning "Al-Adab al-Mufrid" asarini umuminsoniy axloqiy qadriyatlar durdonasi desak, xech mubolag`a qilmagan bo`lamiz. Uzoq o`tmishdan hozirga qadar dunyo musulmonlarida axloqi karima va odobi xaqida kabi oliyjanob xislatlarni takomillashtirish, ularni pokizalikka, imonli-e`tiqodli, sof vijdonli va insofli bo`lishga da`vat etishda bu asar bebaxodir. Bu kitob mustaqilligimizni mustaxkamlash, yosh avlodni illatli va qabiq yo`llardan qaytarishda, shubxasiz, o`z ijobiy ta`sirini ko`rsatadi, albatta.

Abu Nasr Farobiy-o`rta asr Sharqining mashxur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisidir va targ`ibotchisidir. A.N.Farobiy turli soxalarga oid ilmiy asarlar qoldirdi. U o`z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi sifatida shuxrat qozondi. U "Aql xaqidagi risola", "Falsafadan oldin nimani o`rganish kerak", "Falsafa manbalari", "Masalalar manbai" kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi.

Farobiy qadimgi yunon ilmlarining chuqur bilimdoni bo`lgani, uning Sharqda tarqalishi va rivojiga katta xissa qo`shgani tufayli "Sharq Aristoteli", "Ikkinchi muallim" xisoblangan.

Farobiy birinchilaridan bo`lib o`z davri ilmlari klassifikatsiyasini yaratdi va unga bag`ishlab qator risolalar yozdi.

Farobiy fikricha, mavjudotning eng buyuk va yetuk maxsuli-bu insondir. Inson o`zining ongli, aqli, sezish a`zolari tufayli olamni xar tamonlama o`rganish qobilyatiga egadir. Inson o`z aqli yordamida o`zini o`rab olgan mavjudodning moxiyatini tushunadi.

Farobiyning pedagogik ta`limotlari o`z davri uchun ayniqsa, katta axamyatga ega bo`lib, insonparvarlik g`oyalari bilan sug`orilgan.

Farobiy insonni kamolotga yetkazish, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy muommalarni xal etish kabi kundalik masalalar bilan mashg'ul bo'ladi. Uning uqtirishicha, insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa yetuk jamoa bo'la olishi mumkin. Komil insonni yaratish, uni baxt-saodatga eltish xar qanday davlat jamoa boshlig'ining vazifasi bo'lishi darkor.

Farobiy inson bilimining rivojida ilm-fanning rolini xal etuvchi deb biladi, tashqi olamni o'rganish, tabiat sirlarini bilishda tabiiy bilimlarning rolini aloxida qayd qiladi.

Farobiyning pedagogik qarashlarini, ta'lim-tarbiya xaqidagi ta'limotini o'rganishda inson xislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nixoyatda muxim axamyat kasb etadi.

Farobiy insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni deb biladi. Uning asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zaruriyati va buning uchun nimaga asoslanish lozimligi, ta'lim-tarbiya usullari, undan kutilgan maqsad masalalari asosiy o'rinni egallaydi.

Xususan, uning "Baxt-saodatga erishuv xaqida", "Ideal shaxar axolisining Fikrlari", "Ixso al-ulum", "Aql ma'nolari xaqida" nomli asarlarida bu masala keng yoritilgan.

"Baxt-saodatga erishuv xaqida" nomli risolasida bilimlarni o'rganish tartibi birma-bir sanab o'tiladi: bilish zarur bo'lgan ilm, bu-olam asoslari xaqidagi ilmdir. Uni o'rgangan, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon xaqidagi ilmlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat-o'simlik va xayvonlar xaqidagi ilm o'rganiladi.

"Bundan keyin,- deb davom etadi Farobiy, - insonni o'rganishga kirishamiz va insonning inson bo'lishidan kutilgan maqsad va muddaoni o'rganamiz va shuning natijasida nima va qanday narsa ekanligini bilib, aniqlab olamiz."

Shundan keyin biz insonning xozirgi kamolotga erishuvi sabab bo'lgan narsalarni o'rgana boshlaymiz. Bu narsalar esa xayr-exsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlar bo'lib, bu fazilatlarni insonni shu kamolotga erishuvidan maxrum qiladigan salbiy xislatlarni ajratib o'tamiz. Bu salbiy xislatlar xar turli yomon odatlar, nuqsonlar va be'mani xatti-xarakatlarning kelib chiqish sabablarini o'rganishdan avval shu xulq-atvor, xatti –xarakatlarning o'zi bilan tanishib chiqamiz. mana shu tanishishga madaniy, ya'ni Madinaga (shaxarga yoki jamoaga) oid bilimlar deb nom beramiz.

Inson axloqi to'g'risidagi ta'limot etika Farobiyning ijtimoiy ta'limotida eng muxim va asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Farobiy axloq to'g'risidagi ilmi an'anaga asoslanibgina belgilamaydi, sub'ektiv ravishda kelib chiqishni ko'rsatadi va uni keltirib chiqargan omillarni, ya'ni insonning ijtimoiy mohiyatini ham asoslashga xarakat qiladi. Farobiyning nazarida bu ob'ektiv omillar, ya'ni insonning ijtimoiy mohiyati nimada ko'rinadi, namoyon bo'ladi?

"Baxt-saodatga erishuv to'g'risida", "Ideal shaxar axolisining fikrlari" asarlarida bu savolga Farobiy shunday deb javob beradi: "Aql va nafs,-deb yozadi Farobiy "Baxt-saodatga erishuv to'g'risidagi" degan risolasida,- o'zining cheksiz kamoloti bilan borliqda inson bo'lib gavgdalanadi. Ammo bu boshlang'ichlar odamzodning shu tabiiy boshlang'ichlar ta'siri ostida kamol topib, insonga aylanish uchun kifoya qilmaydi, chunki inson bo'lib, insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlash va kasb-xunarga muxtojdir...

Farobiyning bu fikriga insonning tug'ma xislatlari va ijtimoiy hayoti jarayonida vujudga keluvchi ma'naviy xislatlari yoki boyliklari to'g'risida fikrini ham qo'shsak, uning insoniy fazilatlar, ya'ni insonning ijtimoiy mohiyati to'g'risidagi ta'limotining asosiy tamoyillari bilan tanishgan bo'lamiz. Yuqorida bayon etilgan fikrlar asosida Farobiyning inson fazilatlari to'g'risidagi ta'limoti xaqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Inson o'z mohiyati bilan ijtimoiydir, ya'ni jamiyatda, o'zaro munosabatda, O'zaro jarayonda inson bo'lib yetishadi. Jamiyat insonlarning o'zaro birikuvi yordamida insonning o'z moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilish natijasida vujudga keladi va jamiyatdan tashqarida, insonlar jamoasidan ajralgan xolda, yordamsiz o'z ehtiyojlarini qondira olmaydi.

Insonni boshqa jonzotlardan ustun qilgan narsa uning uchun tabiiy xisoblanuvchi aql va ruhiy quvvatlaridir. Inson aqlli va so'zlovchi jonzotdir.

Lekin kutilmagan maqsadlarga erishish uchun tug'ma kasb- hunarni, turli ishlarni egallamoq dakor.

Inson o'zining barcha tug'ma qobiliyatlarini yuksak kamolotga erishuvi, yetuk bo'lmish, mukammallikka erishuvi uchun sarf qiladi va bu yo'lda o'zi kurashgan tabiat xodisalaridan foydalanadi, ularni o'ziga bo'ysundiradi, buning uchun ilm- fanni, turli xunarlarni o'rganadi. Farobiy ta'lim-tarbiya masalalariga juda katta e'tibor berib, insoniy fazilatlariga erishuv, oliy maqsad va kamolotga yetishuv masalasiga alohida ahamiyat beradi. Ta'lim-tarbiya inson uchun tabiat xodisalaridan o'z maqsadlari uchun foydalana bilishni va bu yo'lda boshqa kishilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni, jamiyatning xaqiqiy a'zosi bo'lib yetishuvi, uning ichki tartib-qoidalarini to'g'ri o'rganib jamiyat talablariga javob beradigan inson bo'lib yetishish zarur. O'z davridagi yoshlarning ta'lim, bilim, xunar egallashlari, buning uchun intilishlari, faoliyat ko'rstishlari mehnat qilishlari zarurligi xususidagi fikrlar ulug' mutafakkir ijodida katta o'rin tutganligi bunga yorqin dalildir. Ma'lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Insonning ta'lim-tarbiyasi, odob-axloq me'yorlarining shakllanishi va rivojlanishi ta'lim-tarbiyaning yangi usullari turli tuman jixatlari yuzaga kelishi jamiyat taraqqiyotining bir-biri bilan uzviy bog'langan xalqalaridir. Bu zanjirning biror xalqasining uzilishi ta'lim-tarbiya ishining muayyan zaruriy imkoniyatlarini yo'qotishga olib keladi.

Sharq xalqlarining minglab yillik ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlantirgan xadislari, shariat xukmlaridan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish diniy xurofot sifatida qoralandi. O'rta Osiyoda yashagan buyuk mutafakkirlarning ta'lim va tarbiyaning amalga oshirishning oqilona, samarali usullari to'g'risidagi bebaxo merosi kamsitildi, yoki davr ruxiga mos kelmaydigan, eskirgan qarashlar sifatida talqin etildi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosidagi ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanishga imkon yaratildi. Ular o'z asarlarida farzand tarbiyasi masalasiga katta e'tibor berganlar. Zero, yosh avlod tarbiyasi insoniyatning kelajak taqdirini belgilaydigan ularni ijobiy mezon bilan qurollantiradigan sifatlar bo'lganligi uchun xam mutafakkirlar bu muammoni xal qilishga xarakat qilib kelganlar. Sharq mutafakkirlari qomusiy asarlarida va maxsus odob-axloqqa bag'ishlangan risolalarida o'zlarining pedagogik qarashlarini ifodalaganlar va ular pedagogik hamda falsafiy didaktik xaraktarga ega ekanligi bilan aloxida qiymatga ega.

2.2. Ta'lim- tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy-estetik tarbiyani shakllantirishning metodik yo'nalishlari

Boshlang'ich ta'lim jarayonida I-IV sinflarda o'qitiladigan «O'zbek tili», «Ona tili», «O'qish», «Odobnoma», «Tabiat», «Musiqqa madaniyati», «Tasviriy san'at», «Mehnat», «Jismoniy tarbiya» kabi fanlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy-estetik tarbiyani tarbiyalashning poydevori qo'yiladi. Chunki, ushbu fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilar ongiga axloqiy-estetik tarbiyaning maqsad va vazifalarini singdirish, inson va jamiyat hamda uning taraqqiyoti haqidagi tushunchalar, bilimlar haqida muayyan tasavvurni hosil qilish, ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlarni o'zlashtirish, shaxsning ijtimoiy yo'nalishi haqidagi ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Ya'ni, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy-estetik tarbiyani shakllantirish 1-sinfdan IV sinfgacha bo'lgan davr mobaynida muhim o'zgarishlarga uchraydi. Bu yoshning oxirgi davrlariga kelib axloqiy-estetik tarbiya haqidagi bilimlar tasavvurlar va mulohazalar sezilarli darajada boyiydi. Ya'ni, boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi har tomonlama rivojlangan yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat ekanligi tufayli har bir o'qituvchi dars jarayonida bolalarda axloqiy-estetik tarbiyaga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish, bu borada samaradorlikka erishish yo'lida beriladigan bilimlar muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda axloqiy-estetik tarbiyani shakllantirish asosida ularda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usini kamol toptirishda o'qish darslari muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki, o'qish darslari o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiribgina qolmay, balki, ularning umummadaniy tafakkurini, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan axloqiy, mehnatsevarlik, insonlarga va atrof - muhitga bo'lgan estetik munosabatini rivojlantiradi. Boshlang'ich ta'lim bosqichining 3-4 sinf o'quvchilari uchun chop etilgan «O'qish kitobi»ning dastlabki matnlari O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi bilan boshlanadi.

Madhiyada O'zbekiston xalq qahramoni, shoir Abdulla Oripov davlatimizning xalqimizning insonparvarligini, uning doimo do'stlarga yo'ldosh, mehribon ekanligini g'urur va iftixor bilan yozgan. O'quvchilar madhiyani kuylash jarayonida miliy g'ururni his eta boradi.

Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilariga davlatimiz madhiyasining mohiyati, mazmunini tushuntirish bilan birga uning satrlarida ifodalangan vatanparvarlikka alohida e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy- estetik tarbiyani tarbiyalash jarayonida o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim.

1. Bolalarda axloqiy- estetik hatti-harakatlarini tarbiyalash;
2. O'quvchilarda odamiylik, do'stlik, to'g'rilik, adolatparvarlik munosabatlarini kamol toptirish;
3. O'quvchi shaxsida ma'naviy - axloqiy fazilatlarni shakllantirish;

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari bo'lgan - Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravrligi komil inson kabilarni o'quvchilar qalbiga va ongiga singdirish.

1-sinfda integratsiyalangan matematika darsi uchun yoyiq konspekt reja (matematika, o'qish, atrofimizdagi olam)

Mavzu: 1 dan 5 gacha bo'lgan sonlar. 1 soni

Maksad:

1. Ta'limiy- o'quvchilarni 1 soni bilan tanishtirish. «Raqam» va «son» tushunchalarini berish.
2. Rivojlantiruvchi-raqamlar elementlarini yozish ko'nikmalarini rivojlantirish.
3. Tarbiyaviy-hayvonlarga nisbatan g'amho'rlik hissini tarbiyalash.

Jixozlar: rasmlar, qizikarli material, kartochkali panno.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism. O`quvchilarning darsga tayyorligini tekshirish.
Ularni dars jarayoniga jalb qilish.

Uy vazifasini tekshirish.

- Bolalar, daftarlaringizni oching. Men uy vazifasini tekshirib chiqaman.
O`qituvchi sinfni aylanib, daftarlarni ko`rib chiqadi, eng yaxshi daftarni
sinfga namuna qilib ko`rsatadi.

Endi daftarlarni yopib, parta burchagiga qo`yinglar, navbatchilar
daftarlarni yig`ib chiqishadi.

3. O`tgan darsni takrorlash.

Og`zaki sanoq:

Bolalar, hammangiz pannoga qaranglar, tepadagi qatorda nima bor?

Kvadratni tasvirlab bering (4 burchak, 4 tomon)

Uchburchakni tasvirlab bering (3 burchak, 3 tomon)

Aylana, doira to`g`risida nima deyish mumkin?

Oxirgi shakl qanaqa (ko`pburchak)

Kvadrat va uchburchak o`rtasida nima bor? -

Aylananing o`ng tomonida nima bor ?

Ikkinchi qatorda nima bor? - Ular to`g`risida nima
deyish mumkin?

Hammasi nechta ? (juft) - Keyingi qatorda nima bor?

Ularning soni haqida nima deyish mumkin? (Zta yashil, qolganlari sariq)

Bitta barg tushib ketdi, nechta qoldi?

4-qatorda nima bor?

2-bob bo'yicha xulosa.

Jamiyat hayotining tezkor taraqqiyoti, ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida jadal sur'atda ro'y berayotgan o'zgarishlar ta'lim jarayonini tashkil etishda davriy o'zgarishlarni inobatga olish, fan yangiliklarini o'quv materiallari mazmuniga singdira olish lozimligini taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilardan pedagogik faoliyatni integratsion loyihalar asosida tashkil etish orqali o'quvchilarda o'quv hamda ijtimoiy faollikni shakllantirish, ularning mustaqil tafakkurga ega bo'lishlariga erishishni maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda.

Pedagogik ijodkorlikning o'ziga xos ko'rinishi sanaluvchi integratsion faoliyatni tashkil etishda o'ziga xos qiyinchiliklar ko'zga tashlanadi. O'qituvchilarning pedagogik faoliyatga noan'anaviy yondashish ehtiyoji hamda integratsion loyihalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishlari mavjud qiyinchiliklarni samarali bartaraf etishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan olganda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsion faoliyat malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim beruvchilarning yuqorida qayd etilgan sifatlarga ega bo'lishlari:

- integratsion faoliyatni tashkil etishda o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish;
- mavjud vaziyatga to'g'ri baho berish;
- maqbul qaror qabul qilish;
- mantiqiy va tanqidiy fikrlash;
- ta'lim oluvchilarni o'qib-o'rganishga rag'batlantira bilish, shuningdek, ularning bilim, ko'nikma, malakalarni individual, guruhli va jamoaviylik asosida chuqur o'zlashtirishlarini ta'minlash;
- ta'lim jarayonida faoliyat shaklini maqsadga muvofiq tanlay olish;
- samarali va ta'sirchan metod hamda vositalardan foydalana bilish;
- shaxsiy faoliyatni izchil va doimiy tahlil qilib borish

III - bob. Axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimi mavzusi bo'yicha o'tkazilgan tajriba- sinov ishlari va ularning natijalari.

3.1.Boshlang'ich maktabda estetik mashg'ulotlarni interaktiv tsikli.

Jamiatimizning barcha faoliyat sohalarida tub qayta o'zgarishlar bo'layotgan bir sharoitda o'sib kelaetgan yosh avlodni tarbiyalash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiatni rivojlantirishning o'tish bosqichidagi vaziyat insonni mavjudligini, mazmunini anglash jarayonlarini, ta'lim tizimini insonparvarlashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu bosqichda Respublikamizdagi maktab o'quvchilarini estetik ta'lim tarbiyasining qadr-qimmatini o'sib bormoqda. Aynan sanoat vositasida insoniyatning ma'naviy tajribasi avloddan-avlodga o'tkazish asosan amalga oshiriladi. Bu esa avlodlar aro aloqani qayta tiklashga yordam beradi. Shu narsa ham muximki san'at «ximoya qiluvchi, kamar» roliga ham namoyon bo'ladiki, bu rol esa bolani zo'ravonlik va shavqatsizlik g'oyalar ta'siridan asraydi. San'at o'quvchilarga chor atrofimizdagi dunyoni to'la-to'kis qiefasini tasavvur etishga yordam beradi, turli hil hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishni osonlashtiradi.

Keyingi vaqtlarda o'quvchilar orasida san'at bo'yicha madaniyatni bir qismi sifatida, musiqani o'rganish, musiqali folklyor, xalq amaliy san'atini o'rganish bo'yicha integrallashgan mashg'ulotlar keng rasm bo'lishi qonuniy tus oldi. Integrallashgan estetik shakl boshlang'ich zvenoda, san'at predmetlarini integratstiyalashi, o'quvchilarni san'at predmetlarni o'qitishning muqobil tizimi, ekanligini ta'kidlash imkonini beradi.

Integrallashgan kurs quyidagi predmetlarni adabiy o'quv, tasviriy san'at va musiqani qamrab olib, ular uchun umumiy maqsadlarga ega didaktikani tamoyillariga ega bo'lib, to'sqinlik qilmaydi, san'atning turli shakllari o'ziga xos xususiyatlarini xisobga oladi, saqlab qoladi, o'quvchilarni o'ziga xos yosh va individual xususiyatlarini etiborga oladi, atrofdagi olamni go'zalliklarini to'laqonli qabul qilishda bolalar tomonidan borliqni anglashda o'z izini qoldiradi.

Ushiniskiyning soʻzlariga qaraganda bolalar ranglar bilan shakllar bilan timsollar bilan tafakkur qiladilar, boshqacha fikrlashga majbur qiladigan, tarbiyachi behuda harakat qiladi deydi.

Integrallashgan estetik kurs Toshkent shaxridagi 24-maktab laboratoriya bazasida sinovdan oʻtkazilgan. Mazkur integrallashgan kursni umumtaʼlim maktablardagi 1-4 sinf oʻquvchilari uchun tematik rejalashtirish xaftasiga 1 soatdan iborat qilib, oʻquv yiliga tuziladi. Jadval estetik kursni rejalashtirishning aniq tasavvurini beradi (Adabiy oʻqish, tasviriy sanʼat, musiqa). 1-sinfda (1,4 tizim boʻyicha) va 3-sinfda (1-3 tizim boʻyicha).

Bu kursda oʻzak predmet boʻlib, badiiy oʻqish, musiqa bilan tasviriy sanʼat oʻzaro bir-birini toʻldiradigan darsning oʻquv materiali hisoblanadi. 3 ta yagona didaktik maqsadni taʼlimiy rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi maqsadlarni amalga oshirishni kuchaytirishda badiiy oʻqishning tasviriy sanʼat va musiqa bilan uygʻunlangan oʻquv materiali katta ahamiyatga ega.

Estetik kursga shoirlarning oʻquvchilar, rassom, kompozitorlarning oʻz mazmuniga koʻra bir-biriga yaqin va mantiqiy oʻzaro bogʻlangan taniqli xristomatik asarlari kiritilgan. Lekin bunga boshlangʻich sinf oʻquvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga oluvchi dasturdan tashqari asarlari kiritilganki, bular bolalarni bilish faoliyatini kuzatishga va bilimlarini kengaytirishga imkon beradi. Bundan tashqari badiiy asarlar, matnlarni tabiatga bogʻliq holda mavsumni oʻzgarishlarini hisobga olgan xolda tanlab olinadi.

Bu oʻquvchilarga atrofni oʻrab turuvchi borliq toʻgʻrisidagi kuzatish va tasavvurlarni oʻrganilaetgan adabiyotlarni borliq toʻgʻrisidagi tasavvurlar bilan jonli jonli va samarali taqsimlashga yordam beradi. Shuningdek bular qoʻshimcha illyustrativ material sifatida hizmat qiladi.

A. Barto «Uyinchoqlar»

A. Bartoning «Oʻyinchoqlar» deb nomlangan sheʼrlariga illyustratsiyalar chizish.

A. Barto «O`yinchoqlar» she`riga, matnlariga qo`shiq va kuylar o`ylab topish, yoki ilgari eshitilgan tanish kuylardan foydalanish.

Maqsadlar: ifodali o`qish malakasini shakllantirish. O`quvchilarni og`zaki savodxonlik nutqini ko`nikmalarini xosil qilish, uni lug`at bilan ishlash xisobiga boyitish, chiroyli estetik didini rivojlantirish musiqa mavzusini xissiy qabul qilish ko`nikmalarini shakllantirish, she`rlariga kuylar tanlashni o`rganish.

Jixozlash: Albom tayyorlash uchun katta bo`lmagan qog`oz varaqlari yoki rasm chizish albomi titul varag`i (muqova) oldindan tayyorlab qo`yiladi.

Darsning borishi

Tashkiliy qism

Maqsad yo`l-yo`riqlari

3. Topishmoqlar bilan ishlash

1) O`quvchilar tomonidan topishmoq o`qish va topish.

2) Savollarga javoblar berish:

- Siz topib olgan buyumni bir so`z bilan nima deb atash mumkin?

- Biz nima haqida gapiramiz, kuylaymiz, nimani chizamiz?

She`r, matnlar bilan ishlash

Rassom bezakchi

1. O`quvchilarga tayyorlangan «Koptokcha» she`rini o`qish.

2. Savollarga javoblar.

- Koptokcha qayerga tushib qoldi?

- Diyora o`z o`yinchog`iga qanday munosabatda bo`ldi?

- She`rning oxirgi satrlarini qanday o`qish kerak?

3. She`rni qaytadan o`qish (3-4 o`quvchi)

4. Koptokni haqiqiy koptokka qarab turib albomning birinchi varag`iga chizish.

5. «Koptokcha» she'riga kuy tanlash, alohida o'quvchilar tomonidan ijro qilish. O'qituvchi o'quvchilarning «Koptok» she'riga tanlagan kuylarini fortopianoda chalib berishi mumkin. O'qituvchi she'rning oxirgi misralarini qanday uzilishlar bilan kuyga solishga e'tiborini qaratadi.

Fizminutka

«Buzoqcha» she'ridagi so'z ijrosi harakatlarini kuzatish. «Quyioncha» asarining teksti bo'yicha ishlash.

1)O'quvchi tomonidan tayyorlangan she'r o'qish.

2)Savollarga javoblar:

- Quyionchaning egasi yaxshimi? Nima uchun?

- She'r satrini qanday o'qish kerak?

3)O'qituvchilar tomonidan she'rni qayta o'qish (3-4 o'quvchi)

4)O'yinchoqni o'ziga qarab albomning ikkinchi varag'iga tasvirlab chizish.

5)She'rni yoddan o'qish.

«Quyioncha» she'ri matniga tanish kuyini tanlash, bir qator talabalar tomonidan kuy topish, (o'qituvchi kuyni fortopianoda ijro etib berishi mumkin).

«Samolyot» she'ri matni ustida ishlash.

6) Tayyorlangan o'quvchi tomonidan she'rni dastlabki o'qib berish.

7) Savolga javob:

- She'r satrini qanday ifodali bilan o'qish kerak?

8) 3-4 o'quvchi tomonidan she'r o'qish.

9) Savolga javob:

- O`z o`yinchoqlaringizga va o`yinchoqlar yasovchilarga qanday munosabatda bo`lish kerak?

Fizminutka («Samolyot» she`rini o`quvchilar tomonidan xor bo`lib, musiqa jo`rligida ijro etish).

10) O`quvchilar tomonidan samolyot rasmini chizish

11) Lug`at bilan ishlash. Fyuzelej, stabilizator, kopot (lug`at bilan ishlash, samolyot rasmini chizish jarayonida o`tiladi).

12) O`tilganlarni rasmi chizilgan varaqlarni titul varog`i-muqovani birlashtirib – albom tayyorlash.

13) «Gruzovik», «kemacha» she`rlari bilan «Jonli» kitob.

14) Dars yakuni.

Eslatma: integratsiyalashgan darsni musiqa va tasviriyl san`at o`qituvchilari bilan hamkorlikda o`tkazishlari mumkin.

Shunday qilib estetik kursda uchta predmetni integratsiiallashishi katta ahamiyat kasb etadi. Bunday darslar o`quvchilar rang va tovushlar dunyosiga kirishiga yordam berib, ularni yozma va og`zaki nutqlarining rivojlanishi va boyishiga yordam beradi, san`at asarlarini qadrlash, qadrdon tabiiy muhitni go`zalliklari va boyliklarini qadrlash malakalarini hosil qiladi.

3.2.Axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimi mavzusi bo'yicha o'tkazilgan tajriba- sinov ishlari va ularning natijalari.

Biz ta'lim-tarbiya jarayonida axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimini boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiyalashning ahvolini o'rganish maqsadida Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi _____ maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan so'rov varaqalari o'tkazdik.

So'rovlarda keltirilgan «Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv tarbiya ishlari qanday yo'lga quyilgan?» degan savolga maktab o'qituvchilaridan 66 foizi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun Davlat ta'lim standartlari, o'quv-tarbiya jarayonini milliyalashtirish asoslari deb javob berishgan. 34 foizi esa o'z fikrlarini bildirishga qiynalishgan, ba'zilar betaraf qolishgan.

«Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy- estetik tarbiyani tarbiyalash jarayoni qanday yo'lga qo'yilgan? degan savolga 20 foizi dars jarayonida, 20 foizi oilaga bog'liq, 25 foizi tarbiyani yaxshi yo'lga qo'yish kerak» deb o'z fikrlarini bildirishgan, 35 foizi esa to'liq javob berishmagan.

So'rov varaqasidagi «Boshlang'ich sinf o'qituvchilari jamoasi o'quvchilarda axloqiy- estetik tarbiyani tarbiyalashda qanday rejalar asosida ishlaydi? degan savolga o'qituvchilardan 36,4 foizi vatanparvarlikni shakllantirishda ma'naviy qadriyatlarga asoslanish kerak deb, 28,6 foizi esa axloqiy tarbiyani yaxshi olib borish deb o'z fikrlarini bildirganlar. 35 foizi o'qituvchilar esa bu savolga javob berishga qiynalishgan, ba'zilar esa betaraf qolishgan».

«O'quvchilarda ta'lim- tarbiya jarayonida axloqiy- estetik tarbiyani tarbiyalashda qanday shakl va usullardan foydalanasiz, deb berilgan savolga 60 foiz o'qituvchilar o'quvchilarda axloqiy- estetik tarbiyani tarbiyalashda ularga yaxshi gapirish, xushmuomala bo'lish, o'zlaridan katta kishilarga hurmatda bo'lish kabilarni ko'rsatishgan. 20 foiz o'qituvchilar «Odobnoma» darsi orqali shakllantirish mumkin, 20 foizi esa axloqiy- estetik tarbiyani tarbiyalash o'quvchining xulqiga, odobiga bog'liqdir deb javob berishgan». Javoblardan ko'rinib turibdiki,

birortasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy- estetik tarbiyani tarbiyalash bo'yicha to'liq javob olinmagan.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

-Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatlilik, xalqimizning ma'naviy-merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish, vatanparvarlik kabilarni ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish;

-Mustaqil O'zbekiston fuqarolarini tarbiyalashda xalq pedagogikasining asosiy yo'nalishlari bo'lgan o'zbek xalqi og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar, an'analar va marosimlar, xalq o'yinlari, diniy ta'limotlar (hadis va tasavvuf), xalq amaliy san'ati va hunarmandchilik, milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati, tasviriy san'at, tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik, xalq raqs san'ati, Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlarini o'rganish;

-boshlang'ich ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'qituvchilar jamoasini mustahkamlash, unda sog'lom ma'naviy ruhiy muhit, haqiqiy ijodiy vaziyat va javobgarlik sharoitini yaratish, boshlang'ich sinf o'qituvchilar kengashi ishiga rahbarlik qilish;


-o'quvchilarda bilim egallash madaniyati va ongli intizomga rioya qilish ma'suliyatini kuchaytirish, ularda xalqimizning adolat, tenglik, ahil qo'shinchilik va vatanparvarlikning nozik kurtaklarini o'stirish, o'qituvchilar va o'quvchilar jamoalarining birgalikdagi faoliyatini rivojlantirish va ijtimoiy faolligini oshirish, o'z-o'zini boshqarish;

-maktabda «O'zbek xalqi – insonparvar xalq» markazini tuzish va uning faollari yordamida madaniy tadbirlar o'tkazish, butun umummaktab jamoasining faoliyatini yuksak madaniyatlik bo'lishligini ta'minlash va uni takomillashtirish hamda bu sohada maktab va oila hamkorligini kuchaytirish va ayni paytda yosh avlodda vatanparvarlikni shakllantirish uchun uning mas'uliyatini oshirish.


Ushbu vazifalarni amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarida jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealarga bo'lgan samimiy munosabatlar, erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go'zallik, axloqiy hislat va fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar vatanparvarlik qadriyatlarini kamol toptiradi. Shunday ekan, har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarida vatanparvarlikni shakllantirish ana shu qadriyatlar va tajriba natijalarini umumlashtiruvchi bilim shakli ekanligiga e'tiborni qaratish zarur. Chunki, axloqiy-estetik tarbiya haqidagi bilimlar hozirgi holatni aks ettirish bilan birga ularning taraqqiy etish tendentsiyalarini ifoda etadi va rivojlantiradi. Albatta bunda boshlang'ich ta'lim jarayonida bolalarning yoshiga mos ravishda axloqiy-estetik tarbiyaning tizimini o'qituvchilarga tavsiya etish, milliy istiqlol mafkurasini o'quvchilar ongiga singdirishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Tajribadan oldin nazorat guruhining nazorat ko'rsatkichlari.

1- jadval




2- jadval




Tajribadan keyin tajriba guruhining nazorat ko'rsatkichlari.

3- jadval



4- jadval



3- bob bo'yicha xulosa

Ta'lim- tarbiya jarayonida o'quvchilarda axloqiy- estetik tarbiyani tarbiyalash, ularga ilmiy - nazariy asosga ega bo'lgan bilimlarni berish, chuqurlashtirib borish, o'quvchilarning axloqiy- estetik tarbiya haqidagi bu bilimlarini egallash imkoniyatlarini aniqlash hamda ularda axloqiy- estetik ko'nikmalarini hosil qilish uchun pedagogik shart-sharoit yaratishdan iborat bo'ldi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarda axloqiy- estetik tarbiyani tarbiyalashda o'qituvchilar qo'yidagi vazifalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga axloqiy- estetik tarbiya haqidagi bilimlarni berish;
2. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan axloqiy- estetik tarbiya haqidagi bilimlarni chuqurlashtirib borish;
3. O'quvchilarda axloqiy- estetik tarbiya haqidagi bilimlarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishni yuzaga keltirish;
4. O'quvchilarda axloqiy- estetik tarbiyaga oid ongli yondoshuvni qaror toptirish;
5. O'quvchilarni har qanday ko'rinishdagi odobsizliklarga qarshi kurashga rag'batlantirish;
6. «O'qish» darslarini samaradorligini tahlil etib borish.
7. Har bir dars, mashg'ulotning ijtimoiy hayot bilan aloqadorligiga erishish.

Umumiy xulosa

Tadqiqot ishi natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

O`quvchilarda axloqiy- estetik tarbiya tarbiyalashda boshlang`ich ta`lim mazmun-mohiyati bilan katta imkoniyatlarga ega.

Axloqiy- estetik tarbiya tarbiyalash asosida o`quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy g`urur, yurt tinchligi, yuksak axloqiy fazilatlar, go`zallikni xis qilish va unga ijobiy munosabatda bo`lish, vatanparvarlik tuyg`ulari muhim mezonlardan bo`lib hisoblanadi.

O`quvchilarda axloqiy- estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimini shakllantirish ta`lim-tarbiya jarayoniga yaxlit va tizimli yondoshuvni talab etadi.

Bu borada ta`lim-tizimiga texnologik yondoshuv, yangi pedagogik texnologiyalardan, boshlang`ich ta`limning eng ilg`or tajribalaridan o`rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ta`lim-tarbiyaga yaxlit jarayon sifatida yondoshib, sinfdan tashqari ishlarni ta`lim jarayoni bilan uzviy aloqada tashkil etish orqali uning samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

Tajriba-sinov ishlari natijalaridan shu narsa ma`lum bo`ldiki, boshlang`ich sinf o`quvchilarida axloqiy- estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimini joriy etish quyidagilarga rioya qilish muhim sanaladi.

Demak, boshlang`ich ta`lim jarayonida o`quvchilarda axloqiy- estetik tarbiyani shaxs tarbiyasining uzviy qismi sifatida ifoda etadi. Bu esa o`z navbatida o`quvchilarda axloqiy- estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimining ilmiy-pedagogik asoslarini yaratilganligi va ishning aniq maqsadga yo`naltirilganligi hamda maqsadni amalga oshirishda ma`lum shart-sharoitlar yaratilganligi bilan izohlanadi.

Olib borilgan tadqiqot ishimiz natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy- estetik tarbiyasining integratsiyalashgan tizimining maqbul tizimini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

- haqiqiy vatanparvar va insonparvar, bor imkoniyatini yurt tinchligi, xalq faravonligi yo'lida xizmat qilishdan ayamaydigan ma'naviy barkamol insonni shakllantirishga doir metodik majmualar, axborot-ko'rgazmali materiallar yaratish;

- boshlang'ich ta'lim fanlari mazmuniga axloqiy- estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimini singdirish;

- o'quvchilarning axloqiy- estetik tarbiyasiga qaratilgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning zamonaviy metod va usullarini izlab topish va amaliyotga joriy etish;

- o'quvchilarning axloqiy- estetik tarbiyalanganlik darajalari hamda ma'naviy shakllanib borish monitoringini yaratish. O'qituvchilar tomonidan borilayotgan bilimning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilayotganligini doimiy nazorat qilib borish;

- boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsi ma'naviyatini shakllantirishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonman. Fidokor 2000.
2. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.: O`zbekiston, 1996. -380 b.
3. Karimov. I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1 jild. -T.: O`zbekiston nashriyoti, 1996 .
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lidan. 4 jild. -T.: O`zbekiston nashriyoti, 1996 .
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasidir. -T.: O`zbekiston, 1996. -387 b.
6. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, baraqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O`zbekiston, 1997. -326 b.
7. Karimov I.A. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. «Sharq» nashriyot-matbaa kontserining Bosh tahririyati. 1997 y. 63 b.
8. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni -millat qilishga xizmat etsin». Tafakkur jurnali bosh muharriri savollariga javoblari. 1998 y. 2 s.
9. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. Muloqot jurnali, 1998 y. 5 s.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yulidan 6- jild. -T.: O`zbekiston nashriyoti, 1998 y.
11. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. 7-jild.-T.: O`zbekiston nashriyoti, 1999 y.
12. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8 jild.-T.: O`zbekiston nashriyoti, 2000 y.
13. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolatlari. —T. Sharq, 1993 y. - 30 b.
14. Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi» - T.; sharq nashriyoti 1997 – y.
15. Abdullaeva Q.A., Safarova R.G., Bikbaeva N.U, Baxramov. Boshlang`ich ta`lim davlat ta`lim standarti. Boshlang`ich ta`lim jurnali №6 –1998 y.
16. Abdullaeva q.A, Safarova R.g`, Bikbaeva N.U, Baxramov. Boshlang`ich ta`lim Kontseptsiyasi. Boshlang`ich ta`lim jurnali № 6-1998 y.

17. Abdullaeva Q. Ochilov M., K.Nazarov, S.Fuzailov, N.Bikbaeva
«Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari. T.: 1999.
18. Ajdodlar o'giti. -T.: Cho'lpon, 1991 y. -238 b.
19. Azarov Yu.P. Bolalarni sevish san'ati. -T.: O'qituvchi, 1992 y. -198 b.
20. Aminov B., Rasulov T. Vatan-yurakdagi javohir. -T.: O'qituvchi, 1996-y.-160 b.
21. Amir Temur Kuragoniy. Zafar yo'li. -T.: Nur, 1992 y. -109 b. Amir Temur
o'gitlari. -T.: Navro'z, 1992 y. -63 b.
22. Amir Temur. Temur tuzuklari. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at
nashriyoti, 1996 y
23. Axloq odobga oid hadis namunalari T.: Fan.1990 y.-169 b.
24. Valieva N. O'quvchilarda o'zbek adabiyoti materiallari asosida o'rtoqlik va
do'stlik hissini tarbiyalashning ayrim masalalar. p.f.n. olish uchun yozilgan
avtoreferati. 2002.-23.b.
25. Vatan tuyg'usi. -T.: O'zbekiston, 1996 y. -398 b.
26. Inomova M.O. Pedagogicheskie osnovy ispolzovaniya natsionalnykh
tsennostey v duxovno-nravstvennom vospitanii detey v seme. Avto.ref.dis. na
soisk.uchen. step.d-ra ped nauk. -T.: 1998 g. -41s.
27. Ilmi axloq.T.: Yozuvchi. 1993.-15.b.
28. Izuchenie lichnosti shkolnika uchitelem.-M.: Pedagogika, 1991 -135 s.
29. Mavlonova R.Raxmonqulova N.Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan
pedagogikasi . T.: O'qituvchi, 2006. 96 b.
30. Mallaev N. So'z san'atining gultoji. -T.: g'.g'ulom nomidagi adabiyot va san'at
nashriyoti, 1991 y. -149 b.
31. Ma'naviyat darslari. -T.: O'qituvchi, 1994 y. -319 b.

Internet saytlari

<http://www.Norma.uz>. O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlar to'plami sayti.

<http://www.pedagog.uz>.

<http://www.ziyo.net.uz>. O'zbekiston respublikasi talim sayti.

<http://www.edustorng.ru/main/book/pedagogtechno.htm>

<http://dl.nw.ru/theories/technologies> (Краевский В.В. Проблемы научного обоснования обучения. – М.: 1977 г.)

TAYANCH SO‘ZLAR LUG‘ATI

№	O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
1.	an’anaviy dars	традиционный урок	traditional lesson
2.	axborot almashish	обмен информации	change of information
3.	bilim	знание	education
4.	bilish ob’ekti	знание объекта	object of knowledge
5.	boshqaruvchanlik	управляемость	rule
6.	guruhlarda ishlash	работа с группами	work in groups
7.	dasturlashtirish	программируемость	planning
8.	ijodkorlik	творческий	creation
9.	individuallashtirish	индивидуализация	to individualization
10.	innovatsion yondashuv	инновационный подход	innovative approach
11.	integratsiyalash	интеграциализация	integration
12.	interfaol usullar	интерактивный метод	interactive method
13.	kuzatish	наблюдение	observation
14.	kengashish	советоваться	to advise
15.	ko‘nikma	привыкание	practice
16.	ko‘rgazmalilik	наглядность	visuality
17.	malaka	квалификация	experience
18.	mantiqiy fikrlash	логическое мышление	logic thinking
19.	milliy pedagogika	национальная педагогика	national pedagogics
20.	mustaqil fikrlash	самостоятельное мышление	independent think
21.	noan’anaviy dars	нетрадиционный урок	unconventional lesson
22.	oddiydan murakkabga o‘tish	переход от простого к сложному	transition from the simple to the difficult
23.	pedagog	педагог	educator, teacher
24.	tasavvur qilish	представлять	imagine